

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI
IV KURS KUNDUZGI BO‘LIM BITIRUVCHISI

Bozorova Jamila

« Muhammad Ali – poemanavis»

mavzusidagi

*5 220 100 –Filologiya (o‘zbek filologiyasi) yo‘nalishida bakalavr ilmiy
darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2013-2014 o‘quv yili)

Ilmiy rahbar

**D.Quvvatova, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**

BUXORO – 2014

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

IV KURS KUNDUZGI BO‘LIM BITIRUVCHISI

Bozorova Jamila

« Muhammad Ali – poemanavis»

mavzusidagi

**5 220 100 –Filologiya (o‘zbek filologiyasi) yo‘nalishida bakalavr ilmiy
darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2012-2013 o‘quv yili)

Ilmiy rahbar

D. Quvvatova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy hakam:

D.O‘rayeva,
filologiya fanlari doktori, professor

BUXORO – 2014

Mavzuning dolzarbligi. “Ijod – bu o’zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, – deb yozadi yurtboshimiz I.Karimov, – tom ma’noda fidoiylilik demakdir. Chinakam yozuvchi odamlarning dardu g’ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o’zi uchun ilhomni yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo’layotgan o’zgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz”.¹ Mazkur fikr taniqli shoir va nosir, O’zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Aliga ham daxldor. U nazm va nasrda baravar qalam tebratib, zamonaviy o’zbek adabiyoti takomiliga munosib hissa qo’shdi. Ijodini she’rlar yozish bilan boshlagan shoir o’tgan asrning 60-yillaridan e’tiboran adabiyotimizda katta mavqe egallagan poema janrida izlana boshladi. “Gumbazdagi nur”, “Mashrab” poemalari shunday izlanishlar samarasi o’laroq dunyo yuzini ko’rdi. Keyinchalik biografik xarakterdagi “Beshgul”, ertakona uslubdagi “Oshiqlar ertagi” kabi poemalar yaratildi. Adabiyotshunosligimizda shoir poemalari haqida bir qator tadqiqotlar yaratilgan. Ular maqolalar shaklida, poemachilik taraqqiyoti o’rganilgan monografik tadqiqotlarda ko’rinadi. Biroq shoir poemalari tadqiqot ob’ekti sifatida maxsus o’rganilmagan. Ushbu mo’jiz izlanishimizda bir ma’lakaviy bitiruv ishi doirasida shoir poemalarini o’zimizgacha bajarilgan tadqiqotlarga tayangan holda o’rganishga intildik. Bu tadqiqotning dolzarblik xususiyatini belgilab beradi.

Mavzuning o’rganilish darajasi O’zbek adabiyotshunosligida O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, N.Rahimjonov, Sh.Hasanov, Sh.Murodov, D.Quvvatova² kabi olimlarning tadqiqotlarida shoirning “Mashrab”,

¹ И.Каримов. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009, 4-сон, 9-б.

² Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. –Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –462 б. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. –Т.: Фан, 1986. –174 б. Мамажонов С. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –238 б. Муродов Ш. Жанровые особенности современной узбекской поэмы (на материале поэм 70-х годов). Автореферат на соиск. канд. фил. наук. –Т., 1984. – С.22. Ҳасанов Ш. Замонавий дoston поэтикаси. –С., 2001. –142 б. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс.... –Т., 2004. –284 б. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек поэмачилигида жанр ва услуб ранг-баранглиги. –Тошкент: Фан, 2010. –144.

“Gumbazdagi nur”, “Beshgul” poemalariga munosabat bildirilgan, ularga xos fazilatlar xususida mulohazalar bildirilgan. Xususan, S.Mamajonovning “Ranglar va oxanglar”, N.Rahimjonovning “O’zbek adabiyotida poema”, D.Quvvatovning “XX asr ikkinchi yarmi o’zbek poemachiligida janr va uslub rang-barangligi” kabi tadqiqotlarda M.Alining poemachilikda erishgan yutuqlari tahliliga o’rin berilgan. Demak, yuqorida nomlari tilga olingan ishlarda shoir poemalari alohida tadqiq ob’ekti sifatida o’rganilmagan. Ushbu mo’jiz tadqiqotimizda bir **alakaviy bitiruv** ishi doirasida shoir poemalarini tahlil va talqin etishga harakat qilamiz.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. O’zbek poemachiligining XX asr ikkinchi yarmidagi taraqqiyotida Muhammad Alining o’ziga xos o’rni bor. U Mashrab shaxsiga turli munosabat hukm surgan o’tgan asrning 60-yillarida mumtoz ijodkorning lirik siymosini yaratdi. Yoxud Temur shaxsi qoralangan davrda u haqdagi ayrim tarixiy haqiqatlarni “Gumbazdagi nur” poemasida badiiy ifodalab berdi. Yurtga muhabbat tuyg’ulari bilan yo’g’rilgan, avtobiografik xarakterdagi “Beshgul” poemasini yozdi. Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi shoirning poemanavislik faoliyatini yaxlit tizim shaklida o’rganishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, BMI o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’yadi:

- M.Alining poema yaratish yo’lidagi izlanishlariga nazar solish ;
- shoir poemalarining mavzular olamini tahlil etish
- shoir poemalarining obrazlar tizimini o’rganish;
- “Gumbazdagi nur”ni liriklik jihatlarini tadqiq etish;
- “Mashrab ” poemasida tarixiy haqiqat va badiiy to’qima uyg’unligini ochib berish;
- “Beshgul” poemachida mumtoz an’analarning davom ettirilishi va avtobiografizmni o’rganish;
- shoir poemalarining badiiy xususiyatlarini ochib berish;
- shu asosda M.Alining zamonaviy o’zbek poemachiligidagi o’ziga xos mavqeini belgilashdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Ishda ilk marta bir bitiruv malakaviy ishi doirasida Muhammad Ali poemalari maxsus tadqiq ob'ekti sifatida o'rganilmoqda. Tadqiqotda shoir ijodiy biografiyasiga xos jihatlar, uning poemachilikdagi izlanishlari va bu borada erishgan yutuqlari, shoir poemalarining mavzu va obrazlar olami, ularda lirik va liro epik poemaga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi, mumtoz dostonchilik an'alarining davom ettirilishi, shoir poemalari badiiyati kabi masalalar birinchi marta yaxlit tadqiqot holida o'rganishga harakat qilindi. Bu ishimizning ilmiy yangiligini belgilab beradi. .

Malakaviy bitiruv ishining amaliy ahamiyati. Ushbu dissertastiyadan o'rta maktabda Muhammad Ali ijodini o'rganishda, oliy maktabda Yangi o'zbek adabiyoti va Hozir adabiy jarayon fanlarini o'qitishda, shu fanlarga oid seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining joriylanishi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi O'zbek filologiyasi kafedrasining 2013 yil o'tgan yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan. 2014 yil aprelda bo'lib o'tgan yig'ilishda muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Muhammad Ali poemalarining o'ziga xos xususiyatlari

I.1. Muhammad Alining ijodiy biografiyasi

XX asrning 60-yillarida o'zbek adabiyoti maydoniga ko'plab noyob iste'dodlar kirib keldi. Muhammad Ali ana shunday iste'dodlardan biridir. U o'zining qator she'riy to'plamlari, poemalari, she'riy romani, tarixiy romanlari bilan zamonaviy o'zbek adabiyoti yuksalishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

U 1942 yilda Andijon viloyati Bo'z tumanidagi Beshgul qishlog'ida dunyoga keldi. O'rta maktabni Bekobodda tugatdi. Uning badiiy ijodga ishtiyoqi o'rta maktabning 4-sinfida o'qib yurganida uyg'ondi. Bo'lajak shoirning birinchi she'ri 1958 yilda "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasida bosildi. Birinchi she'riy to'plami esa "Fazodagi hislar" deb nomlangan bo'lib, 1967 yilda nashr qilindi.

Bo'lajak shoir Moskvadagi Adabiyot institutida o'qidi. Mehnat faoliyati G'afur G'ulom nashriyoti, O'zbekiston televideniesi, Yozuvchilar uyushmasi Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU) kabi maskanlarda kechdi.

Shoirning dastlabki she'rlaridayoq halqona ohang, bir she'rning o'zida ham barmoq, ham sərbast vazni imkoniyatlaridan foydalanish xususiyati namoyon bo'ldi. Shoir Shuhrat yosh ijodkor she'riyatiga xos fazilatlarni ilg'agan holda, kitobiga so'zboshi yozgani ma'lum.

Dastlabki to'plam adabiyotimizga yana bir iste'dod kirib kelganidan darak berib turardi. Shundan so'ng uning "Otalar yurti", "Oq nur", "Sevsam, sevilsam" singari mazmundor she'riy to'plamlari ketma-ket dunyo yuzini ko'rdi. O'shanday taqiq zamonga yo'l topib, shoir katta jasorat bilan "Mashrab", Go'ri Amir gumbazidan nur izlagan "Gumbazdagi nur" poemalarini yaratdi. "Gumbazdagi nur" poemasi bugungi kunda o'rta maktab adabiyot fani dasturiga kiritilgan.

"Boqiy dunyo" she'riy romani esa yaqin tariximizdan so'z yuritadi. Unda 1916 yilgi Jizzax qo'zg'oloni voqeligi tasvir etilgan. Yuqorida sanaganimiz asarlar shoirning tarixga qiziqayotganidan dalolat berib turardi. Aslida bu jarayon

shoirning tarixiy mavzudagi she'rlar yozishidan boshlangan. Uning "Qadim qo'shiqlar" turkum she'ri Spitamenga bag'ishlangan. Tarixiy mavzu shu she'rlardan dostonlarga, dostonlardan epik asarlarga romanlarga ko'chdi va asardan asarga o'tgani sayin sayqallanib, to'lishib bordi.

Muhammad Ali Oybek kabi she'r va nasrda baravar qalam tebratib kelayotgan ijodkor. Uning nasrdagi dastlabki yirik izlanishi tarixiy mavzudagi "Sarbadorlar" romani bo'ldi. Bu asar uchun adibga "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni berildi.

Shoirning 30 ga yaqin she'riy kitoblari nashr etilgan. Bular orasida «Fazodagi hislar» (1967), «Shafaq» (1968), «Otalar yurti» (1970), «Alvon chechaklar» (1973), «Dostonlar» (1974), «Ninachi haqida ertak» (1976), «Oq nur» (1977), «Ilhom parisi» (1980), «Boqiy dunyo» (1981), «Sevsam, sevilsam» (1983), «Gumbazdagi nur» (1985), «Sen bir gulsan» (1989), «Ona duosi» (1994), «Saylanma» (1997) kabi kitoblari ajralib turadi. Muhammad Ali ijodida «Mashrab», «Gumbazdagi nur», «Zaminda yashaymiz», «Muhabbat» dostonlari, «Boqiy dunyo» she'riy romani, «Sarbadorlar» va «Ulug' saltanat» tarixiy romanlari katta o'rin tutadi. Muhammad Ali publistist sifatida dadil qalam tebratib kelmoqda. «O'z-o'zingni anglab yet» (1988), «Haqiqatdan chekinma, Tarix!» (1990), «Qafasdagi bulbullar» (1996) maqolalarida tariximizning dolzarb masalalari haqida bahs yuritiladi. «Oshiq bo'lmay Haq diydorin ko'rsa bo'lmas» (1992), «Men ko'rgan Amerika» (2000) «Amir Temur chamani» (2006) kitoblari adabiy-ilmiy jamoatchilik tomonidan samimiy kutib olindi.

Muhammad Ali badiiy tarjima sohasida ham taniqli ijodkordir. Badiiy tarjima adib ijodida etakchi o'rinni egallaydi. Qadimgi hind eposi «Ramayana» (1978), qoraqalpoq eposlari «Shahriyor» (1977), «Masposhsho» (1985), Robert Byorns (1971), Galaktion Tabidze (1982) larning she'riy kitoblari shoir tarjimasida chop etildi. Shuningdek, Hoqoniy, Shiller, Bayron, Pushkin, Lermontov,

Maxtumquli, Abay, Tagor, Hamzatovlarning ayrim asarlari Muhammad Ali tomonidan tarjima qilindi.

U qadimgi hind eposi “Ramayana”ni mahorat bilan tarjima qildi. Qoraqalpoq eposlari tarjimasi esa uni Berdaq nomidagi mukofotga sazovor etdi. Ayni choqda u adabiyotshunos olim hamdir. U “Ramayana” tarjimalariga bag’ishlangan dissertatsiya yozdi. Uni muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo’ldi.

Adib asarlari jahonning yigirma beshdan ortiq tillariga tarjima qilingan, publististik maqolalari AQSh, Fransiya, Turkiya matbuotlarida chop etilgan.

Hozirda har yili AQShning Sietl shahriga borib, Vashington universitetida o’zbek tilini tezkor o’rgatuvchi yozgi kurslarga saboq berib keladi. U Amerikada ham shogirdlar etishtirmoqda, O’zbekistonga, o’zbeklarga mehr uyg’otmoqda.

Adib “Sarbadorlar”da Amir Temurning epizodik obrazini yaratgan edi. Ko’hna tariximizga, buyuk davlatchilikka asos solgan Amir Temur obrazini yaratish yo’lidagi izlanishlarini muvaffaqiyatli davom ettirib, to’rt kitobdan iborat “Ulug’ saltanat” roman tetralogiyasini yozdi. Bu asar adabiyotshunoslikda iliq kutib olindi.

Hozirda O’zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi raisi sifatida samarali faoliyat olib bormoqda. Muhammad Ali yangi yangi asarlar yozish bilan mashg’ul. Adib ijod manzillarida charchamasligini istab qolamiz.

I.2. Shoir poemalarining mavzulari va obrazlari

O’zbek poemachiligi folklor va mumtoz adabiyotda dostonchilik tarzida uzoq tarixga ega. Uning bu tarixi ming yilliklar bilan bo’ylashadi va o’ziga xos taraqqiyot an’analari mavjudligini namoyon etadi. XX asrning 30-yillariga kelib, rus va Evropa adabiyotlari ta’sirida “poema” nomi bilan jadal rivojlana boshlagan bu adabiy-estetik hodisa o’zbek epik poeziyasining qiyofasiga aylandi. Ammo bu poema o’zbek folklori va mumtoz adabiyotidagi dostonchilik ta’sirida

shakllangani bois tub milliy mohiyat kasb etgan holda taraqqiy etdi. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotini belgilashda nasrda roman qanchalik rol o'ynagan bo'lsa, nazmda poema shunchalik mavqe egalladi.

Muhammad Ali ham o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim mavqe egallagan poema janrida izlana boshladi. Bu izlanishlari samarasi o'laroq "Mashrab" nomli liro-epik poema, "Gumbazdagi nur", "Beshgul" singari lirik poemalar yaratdi.

Umuman olganda, poemada voqelikning qay yo'lda, usulda ifodalanganiga ko'ra, uning turlarini farqlash mumkin. Bu jihatdan lirik, liro-epik, dramatik poemalar borligini inkor etish qiyin. Jumladan, lirik poemalar voqelikni lirik tuyg'ularga yo'g'rilgan holda badiiy umumlashmalarda bayon etishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Ularda muallifning his-kechinmalari talqini hamda uning shu his-kechinmalariga ta'sir qilgan voqealarga munosabati asosiy o'rin tutadi. Shu bois bu turdagi poemalar yagona syujet chizig'iga asoslanmaydi. Mazkur holatni esa quyidagicha ko'rinishda formulalashtirib ko'rsatish mumkin:

KECHINMA + VOQELIK + MUNOSABAT

$$\text{LIRIK} + \text{EPIK} + \text{LIRIK} = \text{LIRIK POEMA}$$

Ko'rinyaptiki, lirik poemalarda epiklikka nisbatan liriklik miqdori ortiq. Ma'lum bir voqelik ta'sirida yuzaga kelgan kechinma asosida boshqa voqeahodisalarga munosabat ko'rsatiladi. Natijada asarning lirizmi kuchayadi.

Adabiyotshunos V.Kikansning quyidagi fikrlari bu jihatdan e'tiborli: "Lirik poema voqelikni epik tasvirlashda anchagina siquqlikka asoslanadi, tasvirlanayotgan voqelikka muallif munosabatini yorqin ifoda etadi. Shu jihati bilan u poemaning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi"³. Ana shu lirik bo'yoq va siquqlik lirik ibtido, lirik asos, lirik chekinishga keng o'rin ajratish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham biz lirik poemani o'qiyotganimizda undan voqea izlamaymiz. Lirik tasvir asosidan epiklik sizib yuzaga chiqadi. Shundagina lirik qahramon qalbida kechgan kechinmalar silsilasini his eta boshlaymiz.

³ Киканс В.П. Современная советская поэма. –Р.: Зинатне, 1982. –С. 391.

N.Rahimjonovning yozishicha: “Lirik poemada hayot xossasi liro-epik poemadan farqli o’laroq, aniq syujet oqimida emas, balki “men” orqali ifodalangan lirik qahramonning ob’ektiv voqelikdan tug’ilgan ichki kechinmalari, ana shu hayotga munosabati, his-tuyg’ulari orqali ochiladi”⁴. Sh.Hasanov esa bugungi poemalar taraqqiyotidan kelib chiqib yozadi: “Liro-epik va lirik doston orasidagi asosiy farqni ob’ektiv va sub’ektiv tasvir usuli belgilaydi. Liro-epik dostonlarda voqea-hodisalar, xarakterlar, hayotning turfa manzaralari o’quvchi ko’z o’ngida gavalana boshlaydi, shoirning shaxsiy ehtirolari esa ikkinchi darajaga o’tadi. Lekin lirik poemada esa lirik qahramonning taassurotlari, ehtirolari yagona bir mavzu doirasida badiiylashadi va shoir qalbidagi tug’yonlar uzviy aloqadorlik kasb etadi. Agar unda ba’zi bir voqea tafsilotlari bayon etilsa-da, u ham lirik shaxsning ruhiy olamini yoki hasbi holini ochishga xizmat qiladi”⁵ (107). Biroq hamma lirik poemalarda ham hasbi hol berilavermaydi. Shunga qaramay, adabiyotshunoslar qarashlarida mushtaraklik mavjud. Bu lirik poemada lirik qahramonning kechinmalari berilishi bilan bog’liq. His-tuyg’u, kechinmalar silsilasi esa ko’proq monologda yuzaga chiqadi. XX asrning ikkinchi yarmi o’zbek poemalari badiiy strukturasida aynan shu jihatlar yorqinlashib borayotganligi kuzatiladi.

Liro-epik poemada voqeabandlik ya’ni voqelikka lirik munosabat bildirish etakchi bo’ladi. Buni shartli ravishda formula orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\text{EPIK} + \text{LIRIK} + \text{EPIK} = \text{LIRO-EPIK POEMA}$$

Liro-epik poemada epik tasvir kuchlilik qiladi. V.Kikans ham liro-epik poemaning shu xususiyatidan kelib chiqib, “olamning epik kartinalari tasvirisiz poema o’zining mavjudligini oqlamaydi” degan fikrga keladi⁶ L.K.Dolgoplov epik poemalar haqida fikr yuritadiki⁷, bundan uning liro-epik poema atamasini qo’llashga uncha qo’shilmasligi kuzatiladi. N.Rahimjonovning liro-epik poema haqidagi qarashlari V.Kikansga hamohanglik qiladi. Olim bu haqda yozadi: “Liro-

⁴ Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. –Т.: Фан, 1986. –Б.15.

⁵ Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс.... –Т., 2004. – 100.

⁶ Киканс В.П. Современная советская поэма. –Р.: Зинатне, 1982. –С.133.

⁷ Долгополов Л.К. Поэмы Блока и русская поэма конца XIX начала XX веков. –М., Л.: Наука, 1964. –Б.13.

epik poemada ob’ekt bilan birga shoirning ana shu ob’ektga munosabati parallel ravishda mavjuddir. Unda voqeaning dialektik o’sishi bir necha qahramonlar taqdiri orqali ma’lum va aniq syujet oqimida tajassum topadi”⁸. E’tibor berilsa, liro-epik poemalarga berilgan ta’riflarni bitta nuqta birlashtirib turadi. Bu voqelikning yagona syujetga asoslanishidir.

“Mashrab” bir qarashda kechinmalar tasviriga bag’ishlanganday taassurot uyg’otadi. Biroq asar mutolaasi davomida tarixiy hayot manzaralari, tarixiy shaxs hayotining muhim davrlari ko’z o’ngimizda namoyon bo’ladi. Bu liro-epik poemaga xos voqeabandlik xususiyatidir.

M.Alining “Mashrab” poemasi ikki qismdan tashkil topgan bo’lib, uning “Birinchi qo’shiq” deb nomlangan qismida Mashrabning o’smirlik yillari, “Ikkinchi qo’shiq” deb nomlangan keyingi qismida “dunyo lazzatidan bebahra etilgan” Mashrabning Qashqardan chiqib ketishi aks ettirilgan. Bizningcha, poema qismlarining bunday nomlanishida ikki xil ma’no bor: 1. Mashrabning muhabbatdan ozurlangan qalbi va dunyo lazzatlaridan mahrum etilishi mungli qo’shiq yanglig’ yangraydi. 2. Har bir qismda Mashrabning shoirligiga urg’u beriladi va Muhammad Alining o’zi ham Mashrab she’rlari ohangida satrlar bitadi. Bu xususiyat asardagi lirik asosning mustahkamligini belgilab beradi.

“Mashrab” poemasida Boborahim Mashrabning g’azallaridan keltirish orqali asar voqealarining haqqoniyligi kuchaytirilgan. Poemada shoir Ofoqxo’ja dargohini tark etib, sahrolar osha bir qishloqqa etib kelar ekan, bu erda qalandar Xoltoydan o’zining “Yorg’a etar kun bormu, yoronlar” g’azalini eshitib, huzurlanishi tasvirlangan. Asarga Mashrab g’azalining to’laligicha olib kirilishi orqali shoir she’riyatining xalq orasida keng tarqalganligiga, mazmunan qalandarlik yo’nalishida bitilganligiga ham ishora qilinmoqda.

“Beshgul” poemasi esa avtobiografik mazmunga ega. Adabiyotshunos B.Qosimov M.Ali ijodini tadqiq qilar ekan, yozadi: “Ijodkor ham, barcha kishilar singari, birinchi navbatda, o’z yurtining farzandi. U tug’ilib o’sgan joy dunyodagi

⁸ Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. –Т.: Фан, 1986. –Б.16.

barcha manzillardan aziz, muqaddas. Lekin boshqalardan farqi shundaki, bu tuyg'u uning ko'nglidagina qolib ketmaydi. Voqea taqdirarga, kechinma tasvirlarga o'tadi, ular orqali o'quvchida qutlug' Vatan tuyg'usini tarbiya qiladi. Ayni paytda u tug'ilgan yurt ijodkor salmog'iga qarab adabiy ijtimoiy jug'rofiyaga kirib boradi"⁹. M.Alining ushbu poemasi ham tug'ilib o'sgan yurtiga muhabbat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan. Uning bu muqaddas tuyg'usi "ko'nglidagina qolib ketmas"dan she'r bo'lib, doston bo'lib qog'ozga to'kildi. Natijada adabiyotimizda Vatan mavzudagi yana bir go'zal bitik vujudga keldi.

O'n sakkizga kirganimda toshib, to'liqib,
Xursandchiligim ichga sig'may, bag'ringdan chiqib
O'qimoqqa Moskvaga bo'ldim ravona,
Ortda ma'yus qarab qolding bamisol ona.
Olis yoqda qiynalmasmi ish ko'rmagan bosh?
Odam tanib, yaxshilarga bo'larmi yo'ldosh?
Yog'li patir qo'msab qolsa, kim yopib berar?
Shakarpalak qovun desa, kim topib berar?
Qolding shunday xavotirlar, tashvishlarga g'arq,
Yoshlik ekan, ketaverdim men esa befarq¹⁰.

E'tibor berilsa, yuqoridagi parchada shoir biografiyasiga xos ma'lumot badiiy ifoda etilgan. Ya'ni u o'n sakkiz yoshida Moskvaga Adabiyot institutiga o'qishga ketadi. Parchada tug'ilib o'sgan zaminga muhabbat Vatanga muhabbat tarzida jaranglaydi. Unda milliylik ufurib turadi. Vatan shoirmi ona misol kuzatib qo'yadi go'yo. Bunda an'anaviy tashbeh Vatanni onaga qiyoslash orqali voqea vujudga keladi.

Shu tarzda u qishlog'i o'tmishiga nazar tashlaydi. Oldin uning qishlog'i Beshkal deb atalgan. Bu bilan bir hayoti voqeani keltiradi:

"Beshkal" edi sening noming podsho zamoni,

⁹ Қосимов Б. Ижод бахти. Китобда: М.Али. Сайланма. Т: "Шарқ", 1997. Б.8.

¹⁰ М.Али. Сайланма. Т: "Шарқ", 1997. Б.262. (Кейинги парчалар шу китобдан олинади ва қавс ичида бети кўрсатилади).

Devor kabi quladi yu Qo'qonning xoni,
 Qishloqdagi paykallarni xat qilmoq uchun
 Tanobchilar er o'lchashga kelishar bir kun.
 Besh yigitni qo'shib berar tezda oqsoqol.
 Favqulodda, dev jussali, soddayu halol.
 Yalang davron yigitlarning bari kal ekan,
 Biri yarg'oq, bir yag'ir, biri sal ekan!
 Tanobchilar kula kula debdilar: "Besh kal!"
 O'shalarning himmatdan qolgan bu ishkal.

Demak, hikoya qilinishicha, Qo'qon xoni qulatilgandan so'ng yer dehqonning qo'liga o'tishi munosabati bilan yer o'lchovchilar qishloqqa keladi. Unga yordam berish uchun qishloq oqsoqoli beshta yigitni qo'shib beradi. Qarangki, ular baquvvat bo'lishi bilan birga kal edilar. Tanobchilar kulib, "Besh kal" deyishadi. Shundan boshlab qishloqning nomi Beshkal bo'lib qoladi.

Kunlardan bir kun qishloqqa Yo'ldosh ota (Oxunboboyev) keladilar. Qishloqning nomi otaga yoqmaydi va unga Beshgul deb nom beradi. Shoirning yozishicha, shundan boshlab qishloq Beshgul deb atala boshlagan.

Poema Vatan mavzusida ekanligi bilan alohida mazmun kasb etadi. Shoir poemalari mavzu doirasining kengligi, lirik qahramon kechinmalarining chuqur aks ettirilishi bilan ajralib turadi.

II bob. M.Ali poemalarining syujeti va kompozitsiyasi

II.1. “Gumbazdagi nur” – lirik poema namunasi

O'tgan asrning 60-yillarida adabiyotimizga ijodkorlarning yangi bir to'ldirini kirib keldi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Muhammad Ali, Husniddin Sharipov... Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Shulardan biri iste'dodli shoir va nosir Muhammad Alidir. Ilk she'rlari bilan kitobxonlar qalbidan mustahkam o'rin egallagan M.Ali endi dostonchilik yo'lida izlana boshladi. Natijada lirik va liro-epik poemaning “Mashrab”, “Beshgul”, “Gumbazdagi nur”, “Oshiqlar ertagi” singari go'zal namunalarini yaratdi.

Shoir poemalari ichida “Gumbazdagi nur” asari alohida mavqega ega. Bu doston ham tarixiy mavzuda yaratilgan. Uning lirik qahramoni bir o'spirin bola. U Go'ri Amir maqbarasi qoshida xayollarga beriladi. Bola yuqoriga qarasa, maqbara gumbazidagi nur ko'zini qamashtiradi. Shoir mana shu manzarani kuzatar ekan, mittigina bolaning qiziq xayollaridan hayratlanadi. Uning ko'z o'ngida qadim Samarqand gavdalana boshlaydi. Shu asosda shoir shoir yana tarix qatlarini varaqlashga tushadi. Tarixiy manbalar, Amir Temur haqidagi asarlarni obdon o'rgangan shoir uni badiiyat sintezidan o'tkazishga chog'lanadi. Endi haligi maqbarani bola bilan birga nuroniy mo'ysafid kezadi. Mo'ysafid uchun bu manzara nihoyatda sirli, shuning uchun uning ko'zlaridan olov sachraydi. O'spirin esa beparvo.

Shoir dastlab ko'hna Samarqand tasvirini beradi:

Samarqand mana!..
 Ertakdan ham qadimligi rost.
 Salobatu shukuh tantana –
 Faqat buyuk poytaxtlarga xos...
 Madrasalar mo'ysafidsimon
 Ro'parangda o'qishar duo¹¹.

¹¹ M.Али. Сайланма. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. –Б. 245. (Кейинги парчалар шу китобдан олинади ва қавс ичида бет кўрсатилади).

Yuqoridagi parchada Samarqandning ertakdan ham qadimiyligi, salobat va shukuhga to'la shahar ekanligi badiiy ifoda etilmoqda. Keyingi satrlar ohorli tashxis qo'llangan. Shoir madrasalarni duo o'qiyotgan mo'ysafidlarga tenglashtiradi.

Shunday osuda va “zafarlar og'ushida g'arq” Samarqandga g'am soya soldi. Muhammad Sulton Amir Temurning sevimli nabirasi, u nogahon dunyodan o'tadi. Bu Temurni cheksiz qayg'uga soladi. Shoir uning shu damdagi holatini quyidagicha ifoda etadi:

Manglayiga tars uradi u
 Va ingraydi: “Bevafo dunyo!...”
 Kiprigida xunob xunob yosh
 Jilva qilar g'amdan bexabar.
 Nahot unda yo'q endi bardosh?
 O, chorasi bo'lsaydi agar,
 Agar kelsa tirilib o'g'lon.
 Rostlansa gar taqdiri xato,
 Amir Temur. Fotih o'shal on
 Taxtidan ham kechardi hatto (246)

Ulug' amirning qalbi hasratga to'ldi. Bu Temurning qo'lini manglayiga tars urishi, kiprigida yosh qalqishi, nevarasi agar tirilib kelsa, taxtidan ham kechishga tayyorligi epizodida yorqin ko'rinadi. Shunda Amir Temur me'morlarni chorlashni amr qiladi va nabirasiga atalgan shohona sog'ona qurishlarini buyuradi.

Nabiramning ismiga atab
 Qursunlarki shunda sog'ona,
 Istaganin olsunlar tilab,
 Faqat dahma bo'lsun shohona...

Asar voqealari ana shu epizoddan boshlanadi. Shunday qilib, Buxorodan sangtarosh, Farg'onadan gilkor, Shoshdan naqqosh, Xorazmdan ganchkor - jami o'n ikki me'mor Samarqandga tashrif buyuradi. Ular kechani kecha, kunduzni

kunduz demay mehnat qiladilar. Shoir ularning zahmatli mehnatini quyimdagicha tasvirlaydi:

Loy pishitar chapani gilkor,
G'isht teradi tetikkina chol.
Ganchkorning ham yumushi dushvor:
Ganch qotgusi shoshilmasa gar.
Naqqosh ishi undanda mushkul. (247)

Naqqosh ganchga shunday gul soladiki, odamlar hayratlanib “Nahot gul tosh ichida yashirinib yotibdi”. Koshinpaz sopol bilan kunguralar ixtiro qiladi.

Shu tarzda gumbazli maqbara tayyor bo'ladi:

Gumbaz... Rangmi yoki zarhal iz.
Yo quyoshning nuri, jilvagar?
Bo'lardi u yakka-yu yolg'iz,
Ko'k – takrori bo'lmasaydi gar.

Shu o'rinda shoir ba'zi tarixiy voqelikni badiiy gavdalantiradi. Temurning oqsoqligi, uning Sulton Boyazidni engishi singarilar shular jumlasiga kiradi. Biroq shu o'rinda asar yaratilgan o'sha 60-yillarda Temurga bo'lgan salbiy munosabat ta'siri ham seziladi:

Temur, senga edimi ravo
“Fotih” degan nomni olmoqlik?
Ko'hna tarix maydoni aro
Arosatda turib qolmoqlik?
Qaygadir ot surmoqlik nega?
Nahot seni to'ydirolmagan. (249).

Shoir shu o'rinda gumbazdan taralayotgan nurni quyosh nuriga qiyos etadi, go'zalligini esa ko'kka – osmonga mengzaydi. O'n ikki me'mor qismati esa ko'pchilikka qorong'u. Shu bois shoir bu haqda yozadi:

O'n ikki jon – yo'qolgan gavhar,
O'n ikki jon – ochilmas tilsim.

Ular butun borliqlari bilan shu gumbazlar qatiga joylanadilar. Shundan bo'lsa kerak, gumbaz peshtoqlarida "nur jimirlaydi", undan kimdir qarayotganday bo'ladi va sukunat qa'ridan "hazin-hazin sado" keladi:

"Biz o'n ikki jon edik,
Biz o'n ikki jon edik,
Tolei past er qadar.
Himmati osmon edik
Himmati osmon edik.
Qurdik ne-ne imorat,
Ammo bilmadik g'orat.
Umr degan bu savdo
Me'morlikdan iborat!
Me'morlikdan iborat!"

Xo'sh, nega ular gumbazlar orasida qolib ketdilar. Shoir buning sababini quyidagi holatdan izlaydi. Gumbaz ko'kka bo'y cho'zgan sari unga etish mushkul bo'lib qoladi. Me'morlar esa suvga tashna qoladilar. Suv yetkazishning esa imkoni yo'q. Shuning uchun me'morlar birma-bir gumbaz qatlariga joylanadilar va o'zlari ham shu gumbazga aylanadilar.

Rost gap, do'ppi aylanar bir bor,
Yuz yil, ming yil deganlarida.
Sobit turgay o'n ikki me'mor
O'zbekiston chamanlarida.
O'shanda ham kezhaylar mag'rur
Bu dunyoni ko'rgaylar obod.
O'shanda ham yurakda surur.
Qo'llarida ulg'ayar hayot.

Shoir o'n ikki me'mor qurgan gumbazli maqbara davrlar, asrlar osha ularning manguligini ealastib turishini, ular o'z san'atlari bilan O'zbekiston chamanlarida yashashlarini yuqoridagi misralarda to'lib toshib ifoda etayotir.

Lirik chekinishlar orqali shoir voqelikka o'z munosabatini bildirib ketadi.

Nedan mening shodligim durkun?
 Nedan g'amgin kulishim manim?
 Tarix tilga kiradi bir kun,
 Buguncha men aytay bilganim:
 Go'ri Amir qo'r to'kib mag'rur,
 Pahlavonday menga tikilar. (257)

Yuqoridagi ikki satrda tajohuli orif san'ati orqali shoir Go'ri Amir maqbarasi oldidagi holatini, goh shodlik, goh g'amga to'lganini ifoda etadi. Maqbara go'yo shoirga pahlavonday tikiladi. Uning bugun ham qo'r to'kib turishida o'n ikki ustaning zahmatli mehnati borligi ta'kidlanmoqda. Shu asosda u tarix va bugungi zamonni bog'laydi.

Doston quyidagicha yakun topadi:

Gumbazda o'ynaydi
 O'sha nur, o'sha nur,
 Ufq asta yamlaydi
 Oftobni qara!
 Zavollar...
 Savollar...
 Yur, ukam, qani yur!
 Oldinda xayollar...
 Ortda maqbara... (261)

Aslida asar boshida qahramonimizni gumbazda yarqiragan nur o'ziga tortgan va uning tarixini bilmoqqa shaylangan edi. Tarixni qatlarini titib, uning tarixidan xabardor bo'ldi. So'nggi ikki misra ramziy ma'no tashiydi: "oldindagi xayollar" bu kelajak haqidagi o'ylar, "ortda maqbara" esa tarixdan ogoh bo'lishga chaqirishdir.

Shunday qilib, “Gumbazdagi nur” dostoni lirik poema sifatida oʻtgan asrning 70-yillari sheʼriyatida yorqin iz qoldirdi. Bu asar oʻrta umumtaʼlim darsliklari dasturiga kiritilgan.

II.2. “Mashrab ” poemasida tarixiy haqiqat va badiiy toʻqima

Vatanimizning uzoq va yaqin oʻtmishi, unda iz qoldirgan tarixiy shaxslarning hayotini tasvirlash hamisha adabiyotimizning bosh mavzularidan boʻlib kelgan. Chunki “oʻtmishsiz kelajak yoʻq” (I.Karimov). Bu anʼana, tabiiyki, davr poemachiligida ham oʻziga xos davom ettirildi. Jumladan, E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, J.Kamolning “Varaxsha”, “Jamila”, M.Alining “Mashrab”, “Gumbazdagi nur”, E.Samandarning “Erk sadolari”, A.Mahkamning “Tavajjuh”, I.Toʻlakovning “Soʻnggi kecha”, U.Azimning “Xalil Sulton”, A.Suyunning “Sarbadorlar”, Sh.Qurbonning “Soʻz yoʻli” va “Temur Malik yurgan yoʻllarda” kabi poemalarida tarixiy shaxslar hayoti tarixiy voqealar bilan uygʻunlikda ifoda etildi.

Maʼlumki, oʻzbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri Boborahim Mashrabning hayot va ijod yoʻli haqida u yashagan davrdan to bizning kunlarimizgacha koʻplab tarixiy, adabiy, badiiy asarlar yaratildi. Tazkiralari, “Shoh Mashrab qissasi” manoqibi, XX asr boshlarida yaratilgan Fitratning “Mashrab” ilmiy maqolasi mulohazalarimizga oydinlik kiritadi. Oʻtgan asrning 60-yillaridan boshlab Mashrab shaxsi va betakror sheʼriyati ijod ahlida ham hayrat uygʻotdi. Natijada Oybekning “Mashrab” sheʼri, Mirkarim Osimning “Singan setor” qissasi, Hamid Gʻulomning “Mashrab” romani, nihoyat, Muhammad Alining “Mashrab” dostoni vujudga keldi. Adabiyotimizda Mashrab haqida nasriy asarlar ham yozilgan. Bu Mirkarim Osimning “Singan setor” qissasi va Hamid Gʻulomning “Mashrab” romanidir. Mazkur asarlarda ham tarixiy voqelik badiiy toʻqima vositasida real aks ettirilgan. Biroq M.Alining dostoni bu sohadi dastlabki izlanish sifatida ahamiyatli. U 17-asrning mumtoz shoiri siymosini lirik usulda yaratgan.

Bu asarlar orasida “Mashrab” poemasi Muhammad Alining dastlabki ijodiy izlanishlarida muhim o‘rin egallaydi. Boborahim Mashrab shaxsiga turlicha munosabat hukm surgan o‘sha 60-yillarda shoirning bu mavzuda qalam tebratishi o‘ziga xos jasorat edi. M.Ali tasavvufning qalandariya tariqatiga mansub shoir siymosini yaratishda tarixiy haqiqatdan chekinmaslikka va unga xolis nigoh bilan yondashishga harakat qilgan.

Adabiyotshunos U.Normatov o‘rinli ta’kidlaganiday: “Doston barcha janrlar ichida falsafiy mushohadalarga o‘ta moyil, donishmandlikni yoqtiradigan, har qancha lirik chekinishlarga, dadil o‘y-mushohadalarga, davrning katta gaplarini aytishga, ifodalashga keng imkon beradigan janr”. Haqiqatan, asarda shoir doston imkoniyatlaridan foydalana olgan. U liro-epik poemaning an’alarini davom ettirishga harakat qilgan. Buni quyidagilarda yorqin kuzatish mumkin: 1. Voqelikni yaxlit syujet uyg‘unligida aks ettirish. 2. Lirik ifoda va epik bayonning uyg‘unlashganligi. 3. Doston strukturasida turli obrazlarning harakat qilishi. Ayni paytda shoir poemaga bir qadar yangiliklar olib kirgan. Bu asarda lirizmning kuchayishi va voqelikka shoirning shaxsiy his-kechinmalarining omuxta holda ifoda etilishi bilan belgilanadi.

“Mashrab” poemasining “Birinch qo‘shiq” deb nomlangan qismi Alisher Navoiyning “Olloh-olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish” satri bilan ibtido topgan. Haqiqatan, ushbu epigraf asar mazmuniga mos. Chunki M.Ali Mashrabning o‘spirinlik yillarini tasvirlash barobarida uning Gulgun ismli kanizak qizga bo‘lgan muhabbatini, bu yo‘ldagi ruhiy iztiroblarini ham qalamga oladi. “Ikkinchi qo‘shiq” deb nomlangan qismida esa Plutarxning “Shoirlar shohlardan yuqori turgay” fikri keltirilgan. Mazkur epigrafning asar mazmuniga mutanosibli shunda ko‘rinadiki, badiiy tasvir davomida shoir Mashrabning shohlardan ko‘ra xalq orasida ko‘proq mashhur bo‘lganligini yorqin hayotiy lavhalarda ochib beradi.

Muhammad Ali “Mashrab” poemasida Mashrab she‘rlari ohangida satrlar bitgan:

Quyosh og‘di mag‘rib tomon,

Salqin kelmoqda, mana,
 Oh, yuragim urdi yomon,
 To'lmadimi paymona?..
 Chiqib ketdim uyga sig'may,
 Tun ichida olamim.
 Kimlarni ham endi eslay ...
 Yo'q eslovchi odamim (116,231)

E'tibor berilsa, asar qahramoni Mashrabning kechinmalari ifoda etilgan bu misralar mustazod kabi qofiyalantirilgan, ya'ni unda qofiya asosiy misralarda emas, qo'shimcha satrlarda uchraydi.

Asar ikki qismdan iborat. "Birinch qo'shiq" deb nomlangan qismda dastlab Mashrabning o'smirlik yillari tasvirlanadi. Shoir tarixiy davr tasviriga kirishishdan oldin "uch yuz yil ortga" nazar tashlaydi va kuz faslini boshidan kechirayotgan Namangan haqida so'zlaydi. Bunda shoirning Namangan shahrini tilga olishi bejiz emas, albatta. Chunki bu qadim shahar shoir qahramonining ona yurti hisoblanadi. Shundan so'ng kitobxon "shirin xayollarning qo'lidan tutib", "hayot sirini" o'zining "sodda dilidan axtarayotgan" "jingalak sochli beg'am o'spirin" bilan yuzlashadi. Bu Boborahim edi. E'tibor berilsa, asar boshidayoq shoir qahramonining zohiriy va botiniy jihatlarini o'ziga xos uyg'unlikda ochishga erishgan. Shoir qahramonining o'smirlik yillariga daxl qilishida ham chuqur ma'no bor. Sababi, o'smirlik inson hayotining muhim bir davri bo'lib, bu davr orzularga limmo-lim fasldir. Shu mantiqdan kelib chiqib, shoir Boborahimning o'smirlik yillariga e'tiborni qaratadi. "Ixlos tuzog'i"da ham M.Osim dastlab adib Mashrabning portretini chizadi: "Cho'llarni qoplagan chechaklar hididan mast bo'lgan bahor shamoli dadil qadam tashlab kelayotgan yigitga tegajog'liq qilib, yaktagini etaklaridan tortqilar, yuzini siypalab, qulog'iga bir narsalar deb shivirlar edi. Qora qoshlari bir-biriga tutashgan, quralay ko'zlari katta-katta, mo'ylabi sabza urgan, sochlari o'sib elkasiga tushgan xushqomat yigit bir piyola sharob ichib olgan kishidek atrofga kulib boqib, yurishini tezlashtirardi"(226-b). Tabiat

manzarasi va qahramon ruhiyati, portreti uyg'unlikda tasvirlangan ushbu badiiy lavha orqali yozuvchi kitobxonni o'z qahramoni bilan tanishtiradi. Tabiat, aniqrog'i, bahor shamoli ham o'spirin yigitning tuyg'ulariga oshno tutinadi. "Qora qoshlari bir-biriga tutashgan, quralay ko'zlari katta-katta, mo'ylabi sabza urgan, sochlari o'sib elkasiga tushgan" bu xushqomat yigit Mashrab edi. Mirkarim Osim tarixiy shaxs Mashrab tashqi qiyofasiga xos muhim chizgilarga diqqatini qaratgan. Ko'rinadiki, har ikki asarda chizilgan Mashrab suvratida uyg'unlik bor.

Muhammad Ali Boborahim Mashrab siymosini badiiy gavdalantirishda, yuqorida ta'kidlaganimiz, shoir yashagan va undan keyingi davrlarda yaratilgan adabiy, tarixiy manbalar, tazkiralar, xalq orasida mashhur bo'lgan manoqiblarga tayanadi. Ma'lumki, Mashrabning otasi bo'zchi bo'lgan. Shoir shu tarixiy voqelikdan kelib chiqib, masalaga yondashadi:

Kun kelar aylanib u esa gohi
Bo'zchi otasining tushar yoniga.
Xayolida pari, qo'lida – moki,
Yo'l solar dunyoning gulistoniga.

Ayni o'rinda shoir o'smir yoshi xususiyatlaridan kelib chiqib, Boborahimning muhabbat xususidagi orzu-o'ylarini aks ettiradi. U garchi bo'zchi otasining yonida esa-da, aslida xayoli ko'ngliga maskan aylagan parida edi. Shoir qahramon ruhiyatida kechadigan ruhiy jarayonlarni realistik usulda tasvirlaydi. Undagi turli o'zgarishlar: bir dam xayolparast bo'lsa, ba'zan shoshqaloq, ba'zan o'rgimchakdek insonlardan yiroqlashishi, ba'zan esa sorburgutga aylanishi qalbida jo'sh urayotgan ishq olovini namoyon etadi. Qahramonning bu turfa holati dunyoga boshqacha nazar bilan ulg'ayayotgan inson siymosini ko'z oldimizga keltiradi. Shoir Boborahim ruhiyatiga asoslanib hayot haqida o'ylay boshlaydi:

Emoq-ichmoqdanmi dunyo tashvishi,
Borish-kelishdanmi barcha falsafa?
Sirdosh topolmasa o'ziga kishi,
Kim shodmon bo'laru kim bo'lar xafa?

E'tibor berilsa, mana shu o'ylarda Mashrab dunyoqarashidagi muhim jihat ochib berilgan. Zero, shoir qahramoni dunyoni shunchaki anglamaydi, o'ziga sirdosh bilan uni to'kis ko'radi.

O'z tegrasidagi hayotdan oq rangni topolmagan Boborahim uni “o'zga el, o'zga yurt va o'zga makon”dan izlaydi. Nihoyat, “dovrug'i doston, shahri azimlarning sarasi - Qashqar” - Ofoqxo'ja eshon dargohi tomon yo'l oladi. Buni shoir quyidagicha aks ettiradi:

Sarhovuz labida o'sgan sambittol
 Va tinib-to'xtamas ariq bo'yini,
 Bamisli munkaygan, ko'pni ko'rgan chol –
 Qadimiy chinorni, bog'ni, uyini,
 Bolalik yupanchi – shoxdor qo'yini
 Yoxud, nimaniki qamrasa xayol –
 Barin almashtirdi yo'l tanobiga,
 Shamoli, yomg'iri, iztirobiga.

Boborahim sambittol, qadimiy chinor, bog'i, jonajon uyi, shoxdor qo'yi va hokazo o'ziga aziz makonni, sevimli bo'lib qolgan narsalarni yo'l azoblariga almashtirishga o'zida iroda topa oldi. Parchada shoir voqelikni yanada ta'sirchan tasvirlash maqsadida tabiiy tashbeh va sifatlashlardan samarali foydalangan. Ya'ni chinor munkaygan, ko'pni ko'rgan cholga qiyoslanadi. Chunki bunda daraxtning ko'p yashashiga ishora qilinadi va shu asosda Boborahim yashagan vatanning ko'hna tarixiga nazar tashlanadi. Binobarin, chinor holati munkaygan va ko'pni ko'rgan cholni yodga soladi. Yoxud chinorga nisbatan qadimiy, ariqqa nisbatan tinib-to'xtamas sifatlashining qo'llanilishi ham shoirga hayotiy manzaralar yaratish imkonini bergan.

Mashrab biografiyasi xususida yaratilgan “Shoh Mashrab qissasi” manqabasi, Muhammad Bade' Malehoning “Muzokirul ashob” asari, Fitratning “Mashrab” maqolasi Boborahimning Ofoqxo'ja eshon dargohiga ketganligini tasdiqlaydi.¹²

¹² Шох Машраб қиссаси. Тошкент: “Шарқ”, 1991. Муҳаммад Бадеъ Малехо. Музокир ул асҳоб. Самарқанд, 1688-91. Фитрат. Машраб. Китобда: Танланган асарлар. Тошкент: “Маънавият”, 2000.

M.Osimning “Ixlos tuzog’i” asarida xuddi shu voqelik tasviri mavjud. Qissa Mashrabning Ofoqxo’ja dargohiga kelishi voqeasi bilan boshlanadi. Buni yozuvchi quyidagicha tasvir etadi: “Darvozaxona ichida o’tirgan eski sallali, malla choponli, o’rta yoshli kishi tasbeh o’girishdan to’xtab: - Ajab darvishsifat, xushsurat yigit ekan, qo’yib yubor,-dedi- Nega ani kalaka qilyapsan?.. Hoy yigit, bu yoqqa keling, xaltangizda nima bor?

– Assalomu aleykum, – dedi ziyoratchi yigit darvozaxonaga kirib, elkasidan xaltani olarkan.- Tavakkal qilib yo’lg’a chiqqan kishi na tolqonu, na qalqon g’amin er, rizqini yo’ldan topar,- u xaltasidan uchta kitob chiqardi: – Xo’ja Hofiz, Lutfiy, Amir Navoiy devonlari. Yo’lda dilimg’a g’ayrat bag’ishlayturg’on hamrohlarim shular. Yuragimga qil sig’may qolganda setorimni ilkimga olib, aning navosig’a quloq solurman”(227). Shundan so’ng ziyoratchi yigit o’zini tanishtiradi. Darveshtabiatligi bilan suhbatdoshini hayratga solgan yigit Boborahim Mashrab edi. Haqiqatan, Mashrab tasavvufning qalandariya oqimiga mansub. Qalandarlar esa bu dunyoning hoyu havaslaridan voz kechib, yurt kezganlar. Ana jihatlarni ilg’agan adib Mashrabni elkasida kitob solingan xalta, setor bilan qalandarona kiyimda tasvirlaydi. Uni moddiy narsalar qiziqqtirmaydi, hatto egulik bo’lishi mumkin bo’lgan xaltasida ham Xo’ja Hofiz, Lutfiy, Navoiy kabi mumtoz shoirlarning devonlari bor. Ko’rinadiki, asar boshidayoq yozuvchi kitobxonni o’z qahramoni bilan tanishtiradi. Mashrab biografiyasidan ma’lumki, u hamisha g’azallar xirgoyi qilib yurgan, bu esa unga ruh va g’ayrat bag’ishlagan.

“– Otim Boborahim, taxallusim Mashrab. Namangonda mulla Bozor Oxunddin ta’lim olg’onman.

– Borakallo. Mullo Bozor Oxund qutbi olam, Ofoqxo’jamning muridlari, devonai barhaq, sohib jazava, tabarruk zot erurlar. Alarning shogirdlari bo’lsangiz, siz ham haqiqat yo’lig’a tushgan mard yigitlardan ekansiz. Ofoqxo’jam kecha menga: “Mulla Qosim, og’zida kalimayi shahodat, belida kamari xizmat bo’lg’on yigitlardan toping”, degan erdilar”(1.227). Shunday deb Mulla Qosim uni

Ofoqxo'janing huzuriga boshlab boradi: "Boborahim esa bir ozdan keyin setorini olib, baland ovoz bilan Ofoqxo'jaga bag'ishlangan g'azalini o'qiy boshladi:

Dargohingga bir ojizi afgor kelibman,
Arzi holim etmoq uchun zor kelibman".

Salomxonadan eshitilgan "nay sadosidek" bu yoqimli ovoz Ofoqxo'jani befarq qoldirmaydi, uni chaqirishlarini buyuradi.

Ofoqxo'ja Mashrabning ikkinchi ustozidir. U haqda "Shoh Mashrab qissasi"da shunday yozilgan: "Shoh Mashrab ... bir tepa chiqdilar, to'rt tarafg'a boqib, Qoshg'ar tarafidin bir mardi xudoni isi kelodur, deb ravona bo'ldilar. Ilgari eshitib erdilarki, hazrati Maxdumi a'zam nabirasi- Ofoqxo'jam Qoshg'arda deb. Ma'niyi Ofoq uldurki, qutbul olam degan bo'lur. Dunyoda ikki ofoq o'tubdurlar. Birlari Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy, birlari Ofoqxo'jamdurlar". Demak bu fikrlar Ofoqxo'janing tarixiy shaxs ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Qissada Ofoqxo'janing muridi shunday deydi: "Mullo Bozor Oxund qutbi olam, ya'ni Ofoqxo'jamning ixlosmand muridlari, devonai barhaq, sohibi jazava, tabarruk zot erurlar" (438-b). Asarda uning mana shu jihatlarga ishoralar mavjud. Boborahimning g'ayrioddiy xususiyatlarini ko'rib, Ofoqxo'ja unga Mashrab deb ism beradilar. Buni tarixiy va ilmiy manbalar ham tasdiqlaydi. "Shoh Mashrab qissasi"da ham Mashrab ismini Ofoqxo'ja berganlari ta'kidlab o'tilgan. Bu Ofoqxo'ja xarakteriga xos sohibi karomatlik xususiyatini yuzaga chiqaradi.

M.Ali ham ana shu tarixiy haqiqatdan chekinmaganligi yuqoridagi tasvirlardan ko'rinib turibdi.

Tarixiy mavzudagi poemalarda epik asarlardagi kabi biografizmga ham o'rin beriladi. Chunki ularda ham tarixiy shaxs hayotidagi eng muhim nuqtalar qalamga olinadi. Aniqrog'i, bunday poemlarda adabiyotshunos Sh.Hasanov to'g'ri qayd etganiday: "lirik ifoda epik tasvir bag'ridan o'sib chiqadi. Epik lavhalar, epik manzaralar lirik ifodaning parvozi uchun zamin hozirlaydi"¹³.

¹³ Hasanov Sh. XX asrning ikkinchi yarmi ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс.... –Т., 2004. – 284 б.

Boborahimning Ofoqxo'ja dargohida bir joriyani – kanizakni sevib qolganligi haqida “Shoh Mashrab qissasi” manqibi, Fitratning “Mashrab” maqolasi guvohlik beradi. M.Ali ana shu tarixiy voqelikni o'ziga xos tarzda badiiy qayta ishlagan. Shoir Boborahim qalbida ishq uyg'otgan kanizakni kitobxonga Gulgun deb tanishtiradi va uni quyidagicha tasvirlaydi:

O'n olti yoshini qarshilar Gulgun,
Eshon dargohining tutqun simbari,
Fatton ko'zlarida ko'rinmas kulgu,
Xayollar kezadi bulut singari.

O'tmish voqeligi Gulgunga o'xshagan qizlarning achchiq qismatidan so'zlaydi. Tarixiy asarlar va tarix kitoblarida qizlarning otalari tomonidan eshonlarga narz qilinishi xususida yozilgan. Gulgun ham shundaylardan biri. Shoir joriya obrazini olib kirar ekan, kitobxonni o'tmish voqeligi, ayollarning achchiq qismatidan ogoh etadi.

Ma'lumki, Mashrabning Ofoqxo'ja eshon dargohidan quvilishi haqida turli qarashlar mavjud. Biroq ular ichida ko'p-ko'p takrorlanadigani – Mashrabning shu dargohda bir kanizakni yaxshi ko'rib qolishi bilan aloqador. M.Ali ham ana shu voqelikka tayanib, Mashrab va Ofoqxo'ja muloqotini asarga olib kiradi. Dramatizmga boy mazkur lavha orqali Boborahimning ishqqa munosabati yorqinlashadi. Uning isyonkorona fikrlari Ofoqxo'jani hayratga qoldiradi:

“Sevgi dilga tashrif buyursa agar,
Ollohning xohishi! Emas-ku gunoh”.

Shunda Ofoqxo'ja uni fikridan qaytarishga urinadi:

“Ikki olamda ham o'zingsan panoh,
Yo rabbim! Tavba de! Bas, bas! Hiylagar
Shaytonning so'ziga shak keltir darhol!
O'zingni qo'lga ol, bo'tam, qo'lga ol”.

Biroq Boborahim o'z fikridan qaytmaydi:

“Degayman, boshimga kelsa ham o'lim.

Sevdim, pir, xudoning ojiza qulin”.

So’ng Ofoqxo’ja uni o’z dargohidan haydashga chog’lanadi. Shunda Mashrab:

“Do’zax emish! Siz ham topguvchi zavol,
Hammaday gunohkor bandasiz, axir!”

Mashrab qalbidagi isyon tiliga chiqadi. Bu Ofoqxo’jani shoshirib qo’yadi:

“Alhazar! Bas endi, tiling kesilgur!”

Mashrab yanada o’z fikrlarini himoya qila boshlaydi:

“Teringiz shunchalar yupqami pirim?
Ko’chkin sel misol shiddatli umr
Shunday, aytavermas har kimga sirin.
Ojiz e’tiqodning bo’lib asiri,
Nochor umidlardan kim qilar huzur?
Hammamiz gunohkor bandamiz, pir, ha...
Ketdim! O’tgan kunlar boshdan sadaqa”.

Keyin tutaqib ketgan Ofoqxo’ja buyuradi:

“...Bichingiz! Qop-qora aylangiz yuzin!
Bori ham yo’g’idan qilingiz judo!
Toki kufurotning izmin unutsin,
Dunyo lazzatidan bebahra o’tsin!”

Mazkur lavha mohiyatan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Xisrav va Farhod munozarasini yodga soladi. Shoir mumtoz adabiyotdagi an’anana davom ettirib, shu yo’l bilan Mashrab xarakterining muhim jihatlarini yoritishga harakat qiladi.

Tarixiy va adabiy manbalar Mashrab tomiriga qizdirilgan temir bosilgani va u hayot lazzatlaridan mahrum etilganligi haqida guvohlik beradi. Mirkarim Osimning “Singan setor”¹⁴ qissasida ham ham aynan shu voqelik ta’sirchan

¹⁴ Миркарим Осим. Карвон йўлларида. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978, 16-36, 236-245-бетлар.

lavhalarda ifoda etilgan. Shoir biografiyasidan ma'lumki, u Ofoq xo'ja dargohida bir kanizakni yaxshi ko'rib qoladi. "Shoh Mashrab" qissasida shunday lavhaga duch kelamiz: "Shoh Mashrab yig'lab, charx urub, samo' qilib turub erdilarki, podshohimizga obi tahorat beruvchi bir kanizaklari bor erdi. Ul kanizak ravoqdin boshini chiqarib, nozu karashma birla dediki: "Ey Mashrab, to etti yildirki, sani dog'i ishqing mani siynamda joy olibdur. Bukun mening birla bir erda o'ltirmasang, qiyomatda maning qo'lim saning etagingda bo'lg'ay" /13-b/. Mirkarim Osim hayotiy voqelikni qissada quyidagicha aks ettiradi: "Xonimning xizmatida bo'lgan bir cho'ri qiz har kuni namoz vaqti Ofoqxo'jaga tahorat suvi olib chiqardi. Mashrab sernaqsh mis obdasta ko'tarib turgan, qizil ro'molini qiya yopingan bu chiroyli kanizni ko'rsa ham indamay erga qarab o'tib ketardi... Qomati kelishgan, mo'ylabi sabza urgan chiroyli yigitni ko'rganida qiz guldek ochilib ketar, ro'molining bir chekkasini ochib, xiyol qiyiq qora ko'zlari bilan kulib qarardi-yu, darhol yuzini teskari o'girib olardi" /231/. Badiiy lavha hayot haqiqatiga nihoyatda mos keladi. Mumtoz she'riyatimizda ma'shuqani gulga qiyoslash an'anaviy tashbehlardan hisoblanadi. Yozuvchi ham Mashrabni yaxshi ko'rib qolgan Ro'zixonni gulga qiyos etadi.

"Shoh Mashrab qissasi"da hikoya qilinishicha, Ofoqxo'ja Mashrabning oshiq bo'lganini eshitib, buyurdilar: "Devonani bosinglar". So'filar shoh Mashrabni bostilar. Hazrati Ofoq xo'jam kissalaridan muhrlarini olib, o'tg'a tashlab, qizitib, Mashrabning gardonig'a bostilar. Valiyulloh karomat bilan topdilarki, odamzodning shahvatining joyi bandi gardan tamuridadur. O'shal tamurni topib muhr bostilar" /14-15/. Yozuvchi qissada ham aynan tarixiy voqelikka tayanadi: "Sodiq muridi mulla Qosimni chaqirib, unga bir xokandoz cho'g' keltirishni va muhrni olovga toblab qizdirishni buyurdi.

– Shariat xalqasini buzib, sharorat yo'lig'a kirgan bu osiy banda o'ling'a loyiq, – dedi u (ya'ni Ofoqxo'ja) qovog'ini uyib. – Ammo biz qasos olmoqni ayb, afv etmoqni hunar deb bilurmiz...Shuni deb, cho'g'da qizib tobiga kelgan muhrni dastasidan ushlab, oldida bosh egib turgan Mashrabning asab tomirlaridan biriga

bosdi. Mashrab ko'ksiga nayza sanchilgan odamdek ingrab yiqildi"/236/. Shundan keyin Mashrab uylanish, farzand ko'rish baxtidan mahrum bo'ladi. Adib Mashrab hayotidagi mudhish voqelikni ifoda etar ekan, uning qalb iztiroblarini, ruhiy azoblarini badiiy lavhalar orqali o'z kitobxoniga etkazadi: "Kechga yaqin mudray boshlagandi, ko'zi hujra eshigi oldida turgan Ajalga tushdi. U Mashrabga o'qrayib qarab turardi, bir ozdan keyin Ajal boshini ko'tarib, avzoyi o'zgargan holda tisarila boshladi. "Tepamda nima ko'rdiykin?" – deya Mashrab yuqoriga qaragan edi, boshi ustida xushmo'ylov Yoshlikni ko'rdi. U labi uchgan kosani ko'tarib turar, kosa chetidan ko'z yoshidek tiniq suv tomardi. Bir tomchi suv Mashrabning peshonasiga tushgan edi, u cho'chib uyg'onib ketdi va ko'kragiga tuflab, o'ziga keldi-da: "Yaxshi tush ko'rdim. Umr kosasi obihayot bilan to'la ekan, uzoq yashayman", deb o'yladi"/236/. Yozuvchi tush epizodi orqali kontrast obrazlar – majoziy mazmundagi Ajal va Yoshlik timsollari vositasida yashash uchun kurashayotgan Mashrabning o'sha damdagi holatini nihoyatda ta'sirchan tasvirlagan. Bunda Yoshlik labi uchgan kosada suv ko'tarib turardi. Suv – hayot timsoli. Biroq u labi uchgan kosaga solingan. Bir tomchi suvning Mashrab peshonasiga tomishi – hayoti davom etishidan darak beradi. Biroq labi uchgan kosa shoirning to'kis yashamasligiga ishoradir. Eng muhimi, yozuvchi Mashrab ruhiyatida kechayotgan turfa jarayonlarni hassoslik bilan aks ettira olgan.

Muhammad Ali ham shu haqiqatlardan chekinmagan holda Mashrabning Ofoqxo'ja dargohidagi so'nggi kunlarini dramatik kolliziyalar orqali ta'sirchan ifodalashga erishgan.

Shoir biografiyasidan ma'lumki, u Ofoqxo'ja eshonning dargohini tark etgandan keyin Yorkentga boradi. Bu haqda "Shoh Mashrab qissasi" da ham fikr yuritilgan: "...Shoh Mashrab ozurda xotir bo'lib, dargohdan mag'mumi parishon ahvol Yorkand tarafig'a ravona bo'ldilar. Bir damda o'zlarini Yorkand viloyatida ko'rdilar...Shoh Mashrab shaharga kirdilar. Yorkand hokimi kimxobdin to'shak solib, Mashrabni tushirdilar" (15). Dostonning ikkinchi qismi "Ikkinchi qo'shiq" deb nomlanadi. E'tibor qilinsa, shoirning qismlarni nomlashida ramziy ma'no bor.

Agar “Birinchii qo’shiq”da Boborahimning o’smirlik yillari va unga vobasta muhabbat iztiroblari, Ofoqxo’ja eshon dargohidagi hayoti tasvirlansa, keyingi qismda “dunyo lazzatidan bebahra etilgan” Mashrabning Qashqardan chiqib ketishi, Balxga borishi va u erda Mahmud Qatag’on bilan ro’baro’ kelishi voqealari muayyan izchillikda aks ettirilgan. Xo’sh, nega asar qimlari qo’shiq nomi biilan ataldi. Bunda, bizningcha, ikki xil ma’no bor: 1. Mashrabning muhabbatdan ozurlangan qalbi va dunyo lazzatlaridan mahrum etilishi mungli qo’shiq yanglig’ yangraydi. 2. Har bir qismda Mashrabning shoiriligiga urg’u beriladi va Muhammad Alining o’zi ham Mashrab she’rlari ohangida satrlar bitadi.

“Ikkinchi qo’shiq”da Mashrabning Ofoqxo’ja dargohidan quvilgandan so’nggi qalandarlik hayoti tiniq ranglarda aks ettirilgan. Shoir Mashrabni goh qalandarlar orasida, goh yakka holda tasvirlaydi. Bir kuni Xoltoy ismli qalandar Mashrab g’azallaridan birini – “Yorg’a etar kun bormi, yoronlar” deb boshlanuvchi g’azalini o’qiyotganini eshitib qoladi. Garchi bu g’amgin g’azal shoirga ta’sir etsa-da, qalandardan latifa aytishini so’raydi. Mashrabning shu damda g’azallari xalq tilida kuyulanayotganidan xursand bo’ladi:

Axir, shoir uchun bu siylovdan ham

Ortiqroq toleni ko’rganmi olam?

Shu o’rinda ta’kidlash zarurki, g’azal kuylash, she’r aytish qalandarlarga xos jihatdir.

Mashrabning asarlari xalq orasida juda sevimli bo’lgan. Shu ma’noda Fitrat ham “17-18- asrlarda o’zbek shoirlari orasida (ziyolilar tomonidan emas, omma tomonidan) o’qulg’an muhim siymo Mashrabdir” deyishi ham bejiz emas. Buni shoir Mashrab va dehqon suhbatlari orqali orqali yorqinlashtiradi.

Mashrab dehqonlar tilida baytlari jaranglayotganidan xursand bo’ladi, biroq satrlarni o’zgartirib aytishidan ko’ngli ranjiydi. Shu bois u dehqonning jo’yaklarini buza boshlaydi. Shunda dehqonning jahli chiqadi. Mashrab unga shunday javob qiladi:

– Yo’qsa, sen ham menga aylama jabr!

Urmoq-so'kmoq mumkin meni hayotda,
 G'azalim ko'nglimday pok bo'lsin faqat!
 Kimki dog' tushirsa, qilmasman toqat.

Tarixiy va adabiy manbalarda yozilishicha, Mashrabning o'limini Ofoqxo'ja eshon bashorat qilgan edi. Ayni shu haqiqatni shoir o'ziga xos usulda badiiyat sintezidan o'tkazadi. Shoirning keyingi qo'nog'i Mahmud qatag'onning saroyi bo'ladi. Mashrab Mahmudbiy bilan suhbat quradi:

– Shunday de! Hm-m... Tokay biyobonlarda
 Tentirab yurasan darvish misoli?
 – O! Mashrab kimsasiz u makonlarda,
 O'zini dunyodan sezadi xoli!
 – Ayt-chi, daydilikda topdingmi tole?
 “... Koshki, tole bo'lsa bu zamonlarda...”

Suhbat orqali Mashrab dunyoqarashining yana bir muhim qirradi namoyon bo'ladi. Ya'ni kimsasiz makonlarda u erkinlik tuyadi. Shu asosda M.Ali shoir zamonasidagi tolesizlik, erksizlikka ishora qiladi.

Mahmudbiy bilan bo'lgan so'nggi suhbat Mashrab qismatini hal qiladi. Chunki u dunyoning yolg'onga to'lib ketganligini shohga aytganda, u chiday olmaydi va jallodlarni chaqiradi. Shunday bo'lsa-da, isyonkor shoir dilidagi gaplarni aytishga ulguradi:

Boshga toj etarsiz fahshu zinoni
 Benarvon urarsiz nafs yuzduzin...
 – Xudo hurmati-chun qilaman farmon:
 – Dorga os badbaxtni! Olib bor, Salmon!

Shu bois u dorga osishga hukm qilinadi.

Asardagi so'nggi epizod yanada ta'sirchan:

...Sirtmoqdan otildi eng so'nggi nido:
 – Men endi o'larman balki shum qismat
 Qaysar azoblarga bo'lg'usi mozor.

Sizdan tilamayman zarracha shafqat,
 Mendan yolvorishni kutmoqlik bekor!
 Muhabbat bosh egmas, egilmas zinhor!
 Bilingki, bu telba dunyoda faqat,
 Ulug'lab o'tdi ishq degan tuyg'uni!
 Shoyad unutmag'ay muhabbat uni!

Bu satrlar Mashrab monologi yanglig' yangraydi. Qalbi olloh ishq bilan to'lgan shoir uchun jismoniy o'lim unchalik qo'rqinchli emas. Zero, u muhabbatli qalblarda hamisha yashaydi.

Muhammad Alining mahzun ruh bilan yo'g'rilgan "qayg'uli qissa"si mana shunday yakun topadi. Eng muhimi, unda g'oyat murakkab davrda yashab o'tgan isyonkor shoirning yorug' siymosi bor haqiqatlari bilan badiiy gavdalandirilgan. Shoir Mashrab obrazini yaratish barobarida u yashagan tuzumning tarixiy manzarasini ham yorqin chizgilarda aks ettirishga erishgan. Shu ma'noda "Mashrab" liro-epik poemaga xos jihatlarni o'zida mujassam etgan tarixiy mavzudagi doston sifatida 60-yillar o'zbek poemachiligi sahifalarini boyitdi.

II.3. "Beshgul"da avtobiografizm

Adabiyotimizda avtobiografik qissalar ko'plab yaratilgan. Oybek, A.Qahhor kabi adiblarning asarlari bunga yorqin misoldir. O'zbek poemachiligida bu boradagi tajribalar E.Vohidov nomi bilan bog'liq. Urush iztiroblari tasvirlangan "Nido" poemasida shoirning bolalik yillari bilan bog'liq ayrim lavhalar tasviri mavjud. M.Alining "Beshgul" poemasi Vatan madhiga bag'ishlangan. Ayni choqda unda shoir avtobiografiyasiga xos muhim jihatlar ham aks etgan.

Shu ma'noda doston o'zining avtobiografik xarakteri va Vatan mavzuining ohorli talqini bilan ajralib turadi. Shoir bunda follorizmlardan foydalanib, vatan degan besarhad tushunchaning mohiyatini falsafiy tarzda ochib beradi. Ma'lumki, Muhammad Ali Andijonning "Beshgul" qishlog'ida tavallud topgan. Xalqimiz

orasida “Vatan ostonadan boshlanadi” degan maqol bor. Bunda ostonaga koʻchma maʼnoda tugʻilib oʻsgan yurt maʼnosini ifodalaydi. Shuning uchun boʻlsa kerak, Muhammad Ali ham oʻzi tugʻilib oʻsgan goʻshadan cheksiz mehrini ayamaydi, uni yuksak pardalarda kuylashga chogʻlanadi. Poema A.Pushkinning “Mening sokit maskanim, qutlayman seni” satrlari bilan ibtido topgan. Mazkur qisqa satrlardan shoir poemasi tugʻilib oʻsgan yurt mavzusida ekanligi ayonlashadi.

Shoir oʻz yurti bilan kitobxonni tanishtirishdan oldin uning oʻtmishiga nazar soladi. Aslida “Beshgul” oʻtmishda “Beshkal” deb nomlangan. Bunda shoir “Beshkal” haqidagi xalq rivoyati mazmunidan foydalanib, uning tarixiga nazar soladi. Rivoyatda hikoya qilinishicha, Qoʻqon xoni tugatilgan vaqtda qishloqdagi paykallarni oʻlchash kerak boʻladi. Shunda oqsoqol tanobchilarga besh yigitni qoʻshib beradi. Ularning bari kal boʻlib, “biri yagʻroq, biri yagʻir, biri sal” edi. Tanobchilar “kula-kula: “Besh kal” debdilar”. Shundan soʻng bu qishloq “Beshkal” deb yuritilgan ekan. Shoir qishlogʻining qadim tarixini kitobxon koʻz oldida yorqin gavdalantirish maqsadida xalq rivoyatiga murojaat etadi. Bu esa asarning epiklik xususiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Asarda ushbu rivoyat kompozitsion vazifani ado etadi.

Asarda Yoʻldosh Oxunboboevning qishloqqa tashrifi voqealari epik usulda aks ettirilgan. U xalqqa u erni Beshkal emas, zamonaviy shaklda Beshgul deb atashni maslahat beradi:

“Axir bunda tulpor otning tuyogʻiday er
Mehnat qilsang, botmon-botmon paxta beray der!
“Beshkal” emas “Beshgul” deya atanglar endi
Endi yurtning manglayida tole koʻrindi
Bulbul inin parvarishlar, bizlar-ku inson
Gulzor boʻlsin, bogʻ-rogʻ boʻlsin jon Oʻzbekiston”.

Shundan soʻng bu yurt Beshgul nomi bilan atala boshlaydi. M.Ali yurtining oʻtmishi va bugunini, unga boʻlgan qaynoq muhabbatini ana shu tarzda satrlar bagʻriga tizadi.

Shoir bolaligi tasvir etilgan lavhalar ham hayotiy:

Bu yerlarda mol boqqandim necha necha yil,
Qir ham bilar, soy ham bilar – barchasi kafil.
Apil-tapil maktab borish, qaytish shu yo'sin,
Mehr qo'yib o'qimoqqa vaqt bermas izn.

Shoir shu tarzda bolalik qirlarda mol boqqanini eslaydi. Kechalari o'rtoqlari bilan ro'za kunlarida “Yo, ramazon” qo'shig'ini aytganlarini, bahor kunlari chillak dasta o'ynaganlarini entikib eslaydi. Ayniqsa, qishlog'idagi to'ylar haqida to'lib toshib yozadi:

To'y! Demakki, o'sha erda farog'at, huzur!
“To'y” so'zidan oqajakdir ko'ngillarga nur!
Azon turib qarasangiz, bir bola kelar
Velosiped minganicha kelmasu elar:
“Mamat aka yoppasiga to'yga aytadi!” –
Birpasdayoq yurtni to'yga aytib qaytadi.

“To'y” deganda dilga farahbaxsh tuyg'ular paydo bo'ladi. Shoir o'zbek to'ylarining fayzu barakotli ekaniligini, xalqimizga xos mehmondo'stlikni ifoda etmoqda.

Otasi bilan bog'liq voqealar ham asarda muhim o'rin tutadi:

Ovni shunday ardoqlaydi, sevadi otam,
Qalbi titrar esga tushsa o'sha olis dam,
Xayolida tustovuqlar yurardi chog'i,
Gala gala o'rdaklarni ko'rardi chog'i.
Mening ovga mehrim bormi yo'qmi, bilmayman,
Miltiq nima, o'rdak nima parvo qilmayman.
Chunki ovim o'zgachadir, orzum ham o'zga,
Qushdan ko'ra mushtoqdirman bir shirin so'zga.
So'z bilan dil ovlamoqdir, murod va niyat,
Kurashlardan tap tortmasin, deyman she'riyat(264).

Shoir otasining ovga juda qiziqqanini yozadi. Shu tarzda ovni o'ziga, o'z hayotiga bog'laydi. Bu satrlardanani uning yoshligidan badiiy so'zga oshufta bo'lganligini sezish qiyin emas. Shuning uchun u maqsadim "so'z bilan dil ovlamoqdir", – deydi.

Mangulikni ko'zlab qolding qishlog'im, mana!
 Maktab bog'i gavjum, kechar mungli tantana.
 Janggohlardan qaytishmadi yigirma o'g'lon...
 "O'g'lingizga haykal qo'ydik" – deyishgani on
 Bo'y bermagan baxt timsoli bo'lib mujassam,
 "O'g'lim kepti", – deb chopibdi Kumush kampir ham!
 Parda tushar. Bronzada yonar nomlari...
 Vaqt topolmay go'yo uyga qaytmoqqa, bari
 Ona qishloq. Ona-Vatan bo'lsin deb omon
 Qayerdadir ular hamon, jang qilar hamo (267).

Shoir bu yerda Vatan urushi voqeligiga ishora qilmoqda. Kumush kampirga o'xshagan ko'plab onalarini yillar davomida o'g'illarining qaytishini intiqlik bilan kutganlar. Janggohlarda halok bo'lgan o'zbek yigitlari uchun yurtlarida haykallar bunyod qilingan. Jumladan, Beshgul qishlog'idan ham jangga ketgan yigitlarning yigirmatasi qaytmagan. Ularga maktabda yodgorlik o'rnatilgan. Yuqoridagi parchada ana shu hayotiy voqealar tasvir etilgan.

Men xayolkash kechalaring qo'msadam yana,
 Men daydingni balki kutgan emassan, Ona!
 Biroq, oddiy hikmat borkim, qaytsa bolasi,
 Quchoq ochmoq – volidaning yolg'iz chorasi.
 Sen tomonga taxtiravon yo'llar tushibdi,
 Karnaylardan savti navo ko'kka uchibdi.
 Gapning rosti, shovqiningni ko'rmagan erdim,
 Shovqiningga omad bersin, nima ham derdim.
 Go'zallikni, yasharishni tan olmoq kerak,

Usiz hayot qadrin, axir, anglamas yurak (268).

Yuqoridagi satrlarda Vatan ona ekanligini yana bir bor ta'kidlanmoqda. Beshgulning obod bo'lib borayotgani, yo'llari tekislashgani, to'ylar sadosi yurtning fayzga to'laligini o'zida ifoda etadi. Shoir yurtiga xuddi bola onaga talpingan kabi oshiqadi, unga bo'lgan farzandlik mehrini to'lib toshib kuylaydi.

Poema mutolaasi davomida shoirning bolalik, o'smirlik, talabalalik yillari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga tug'ilib o'sgan yurtga bemisl muhabbat, u yerda yashovchilarga cheksiz hurmat asar sahifalarida shu'lalanib turadi.

III bob. Shoir poemalarining badiiy olami

III.1. Badiiy san'atlarni qo'llashda shoir mahorati

Muhammad Ali poemalarining badiiy tili ancha boy. U mumtoz va zamonaviy she'riyatimizda qo'llangan bir qator badiiy san'atlardan samarali foydalangan va voqelikni hayoti tasvirlashga erishgan. Bu jihatdan “Mashrab” poemasi xarakterlidir.

Ma'lumki, sifatlashlar she'riyatda badiiy tasvir vositasi sifatida poetik fikrning jonli ifodalanishini va badiiy til serjiloligini ta'minlovchi muhim vositalardan biridir. Davr poemachiligida shu tasvir vositasidan o'ziga xos uslubda foydalanib kelinayotganligi kuzatiladi. Masalan, M.Alining “Mashrab” poemasida lirik qahramonning ma'lum vaziyatdagi ruhiyatini tasvirlash uchun oddiy, bir so'zdan iborat sifatlashlar emas, balki so'z birikmasi, juft so'zlar, ajratilgan izoh bo'lakli yoxud uyushiq bo'lakli *murakkab sifatlashlar* qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Ular shoirga hayotiy manzaralar yaratish imkonini kengaytirgan. Aytaylik, poemada shoir Mashrabning Ofoqxo'ja huzuriga ketish holati quyidagi *sifatlashlar* orqali ifoda etilgan:

Sarhovuz labida o'sgan sambittol
 Va tinib-to'xtamas ariq bo'yini,
 Bamisli munkaygan, ko'pni ko'rgan chol –
 Qadimiy chinorni, bog'ni, uyini...
 Barin almashtirdi yo'l tanobiga,
 Shamoli, yomg'iri, iztirobiga.

Ushbu she'riy parchaning deyarli har bir satrida sifatlash mavjud. Jumladan, “Sarhovuz labida o'sgan sambittol”, “tinib-tinchimas ariq” (bunda tashxis ham bor), “munkaygan, ko'pni ko'rgan chol – qadimiy chinor” kabilar bunga misol bo'la oladi. Voqelikni yanada ta'sirchan tasvirlash maqsadida keltirilgan bu sifatlashlar ajratilgan aniqllovchi ko'rinishida shakllangan. Ular asarda Mashrab xarakterini, ruhiy kechinmalarini yorqin ochishga xizmat qilgan. Shuningdek, poemadagi qishloq sayli tasviri ham sifatlashlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi:

Asardagi qishloq sayli tasviri ham Mashrab xarakterini ochishga xizmat qiladi. Mashrab saylda polvonlar olishuvini, lochinday yigitlarning raqsini tomosha qilar, mashshoqlarning kuyini eshitar ekan, qalbini allaqanday iliqlik to'ldiradi. Shu damda u sevimli Gulgunini eslaydi. Biroq yoshlik damlari ancha ortda qolgan edi. Shoir Mashrabning shu damdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi:

Janubning ship-shiydam sahrolarida
 Maqsadsiz ko'chganday beiz quyunlar,
 Shafqat siylamagan zamon qa'rida
 Daraksiz yo'qolgan besanoq kunlar
 Qanisiz? Nahotki xo'rsinish, munglar,
 Afsuslar shoirning xayollarida
 Yolg'iz charx urarlar, qoqarlar qanot,
 Boyqush vayronada sayraganday shod?...

“Maqsadsiz ko'chgan beiz quyunlar”, “daraksiz yo'qolgan besanoq kunlar”, shoir talqinicha, Mashrabning hayot yo'llari. Shoir xayollarida afsuslar, xo'rsinish va munglarning charx urishi vayronada shod sayrayotgan boyqushga o'xshatiladi. M.Ali Mashrab qalbidagi o'kinchni mana shu yo'l bilan jonli aks ettiradi. Zero, hayot lazzatlaridan mahrum etilgan Mashrab odamlar borliqdan zavqlangan, shodon o'ynab-kulgan pallada o'sha masrur damlarini qo'msaydi. Dostonning mazkur o'rinlarida shoir qahramoni ruhiyatida kechayotgan so'ngsiz g'alayonlarni aks ettirishda badiiy to'qimadan unumli foydalangan. “Maqsadsiz ko'chgan beiz quyunlar”, “daraksiz yo'qolgan besanoq kunlar”, shoir talqinicha, Mashrabning hayot yo'llari hisoblanadi.

Shoir poemalaridagi tashbehlar ta'sirchan va hayotiy. “Gumbazdagi nur” bu jihatdan e'tiborli?

Ajab, ko'm ko'k turibdi gumbaz
Aza tutgan ayol singari.

Ma'lumki, azada ayollar ko'k kiyinadi. Ko'm ko'k gumbaz aza tutgan ayolga o'xshatilmoqda. Bu bejiz emas. Sababi, maqbara Muhammad Sultonga qurilgan. Shu jihatdan tashbeh mungli holatlarni ifoda etadi.

Hayot *kuzgi yaproqdek* qalqib,
O'lim unga surganida ot.

Hayot kuzgi yaproqqa qiyoslanmoqda. Kuzgi yaproq esa to'kilay deb turibdi.

“Mashrab” poemasidagi tashbehlar ham kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Bu orzu kiprikka qalqigan yoshday,
Yo tagsiz daryoga tashlagan toshday.

Ma'lumki, Mashrab Ofoqxo'ja dargohida Gulgun ismli kanizakni sevib qoladi. Biroq bu muhabbatga etishish dushvor. Shu bois shoir Mashrabning ishqqa etishuvini kiprikka qalqigan yoshga, daryoga tashlangan toshga o'xshatadi. Chunki kiprikka qalqigan yosh lahzalik, daryo tubidagi toshni ham olib bo'lmaydi.

“Gumbazdagi nur” poemasida bir qator talmehlar qo'llanilgan:

Chappar naqsh yo'riqlarida –
Farhod orzu qilgan tilsimot.
Shohizinda girihlarida
O'z qismatin ko'radi hayot. (249)

Farhod Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bosh qahramoni. U ham naqqoshlik hunarini egallagan edi. Shoir bu parchada shunga ishora qiladi.

Ul *Boyazid*– usmoniy arslon
Er titratib ulgurmay hali...
Oltin O'rda, Qipchoq dashtida
Yer yuzidan ketganda badar. (249)

Sulton Boyazid mo'g'ul hukmdori, Oltin O'rda ularning qarorgohi. Yuqoridagi parchada shu ikki tarixiy shaxs va makonga ishora qilinmoqda.

Ne-ne asr, ne ne *Axriman*
Yo'llaringda qolgan misli xas.

Axriman – “Avesto”dagi yomonlik xudosi. Parchada shunga ishora qilinmoqda.

Bezakli devorlar,
Zarhal kungura...
Fusundan yaralgan
Ajab koshona.
Layliga dars aytar
Tilsiz qayg’ular,
Sahrolar ortida
Majnun – devona. (255)

Shoir tarixiy voqelikni zamonga bog’laydi. Samarqandda yangi koshonalar qad ko’targanini aytadi. Layli va Majnun Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni qahramonlari. Yuqoridagi satrlarda bugunnnning laylilari va majnunlariga ishora qilinmoqda.

Alisherning ruhin shod etib,
Qog’oz uzra naqshlar chizgay.
Bunda ulug’ Alisher Navoiy talmeh qilinmoqda.
“Mashrab” poemasida ham talmehdan samarali foydalanilgan.
Farhodu Qayslarni aylagan majnun.
Ehtiroslar mudrab yotardi hali.

Bunda Farhod va Qaysni talmeh qilib keltirish orqali Mashrabning holati tasvirlanmoqda.

“Beshgul”da ham bir qator talmehlar mavjud.
Qalam tutsam, *Alisherni* ko’raman nogoh,
Arslon ko’zli *Oybek* boqar – shiddatli nigoh!
She’riyatda qo’riq ochmoq istasa shoir.
Xalq dilida nelar pinhon – ilg’asin mohir.

Shoir bunda she’riyatimizning ikki bebaho vakili nomini talmeh qilib keltimoqda. Shoir sh’riy satrlar tizar ekan, ko’z o’ngida shu ulug’ siymolar turadi.

Chollar esa davra qurib, bo'lishib to'p to'p,
 Kechalari dostonxonlik qilishardi xo'p.
 Qimir etmay tinglashardi, o'qib berardim:
Alpomishning zahmatlarin, Ravshanning dardin,
Go'ro'g'lining shiddatlarin yaqin sezarlar.

Yuqoridagi badiiy parchada xalq dostonlari qahramonlari Alpomish, Ravshan, Go'ro'g'liga ishora qilinmoqda. Bu bilan shoir o'z qishlog'idagi kitobxonlik davralarini hayotiy tasvirlashga erishgan.

Shoir badiiy mahoratining o'ziga xos jihati shundaki, u mumtoz an'anani davom ettirib, bir paytning o'zida bir necha badiiy san'atni qo'llashga erishgan:

Yo'qsa, tug'ilarmi shoir degan zot,
 Yo'qsa, taralarmi mung ila g'amlar?
 Yo'qsa, moziydagi Shirinu Farhod –
Alisher qalbidan chiqmish alamlar (223).

Ushbu satrlarda anafora, tajohuli orif va talmeh san'ati qo'llanilgan. “Yo'qsa” so'zi har bir satr boshida takrorlanib, ta'sirchanlikni oshirgan. Birinchi va ikkinchi satr ritorik so'roq gap shaklida tuzilgan. Undan shoir degan zot tug'iladi, mung ila g'am taraladi, degan javobni anglash mumkin. Shirin, Farhod badiiy asar qahramonlari, Alisher Navoiy – tarixiy shaxs, mutafakkir shoir. M.Ali shu talmehlar orqali Mashrab ruhiyatini yoritib beradi.

Men xayolkash kechalaring qo'msadam yana
 Men daydingni balki kutgan emassan, Ona (267).

“Beshgul” dan olingan bu parchada anafora (“Men”) avtobiografizmni ifodalashga xizmat qilgan.

Dostonning muhim jihati, unda voqelikka, hayotga falsafiy munosabat yorqin ko'zga tashlanadi:

Ikki mintaqadan yaralgan hayot
 Zulumotdan – qora, yorug'likdan – oq.
 Ikki rang bor ekan, inson umrbod

Ufqqa intilar, ufq esa yiroq.¹⁵

Mintaqa so'zi aslida geografik termin hisoblanadi. Asarda esa shoir bu so'zga yangi – ramziy ma'no yuklaydi. Ya'ni bu yorug' olam ikki qarama-qarshi tomonlardan yaralganligi, inson ana shu oralig'da yashab yuksakliklarga intilib yashashini alohida ta'kidlaydi. Shoir o'zining falsafiy mulohazalarini qahramonining ichki olamiga bog'laydi. Bu o'rinda tazod shoiga voqelikni badiiy tasvir etishda qo'l kelgan.

O'lim nurli xayollarga tashlarkan parda
Hayot mangu o'rmalarkan hujayralarda
 Tezkor zamon lol aylarkan hattoki nurni,
 Bir nuqtada qolmoq axir mumkin bo'lurmi?(268)

“Beshgul” poemasidan olingan yuqoridagi parchada *hayot*, *o'lim* so'zlari antonim bo'lib, asar falsafiyligini oshirishga xizmat qilgan. Chunki shoir shu orqali hayot, yorug' olam haqidagi, uni qadrlash lozimligini uqtirmoqda. Shu o'rinda bir mulohaza: shoir “*Hayot* mangu o'rmalarkan hujayralarda” – der ekan, o'rmalash so'zini noo'rin qo'llaydi. Chunki bu so'zda salbiy ma'no anglashilib turadi. Inson hujayralarida hayot oqishi to'g'riroqdir. Shoir she'riy qofiya talababiga ko'ra shu so'zni qo'llagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

O'zga tuyg'ulardir uni etgan band,
 O'zga andishadan qiynalar joni.
 Ul o'yin kulgular qoshida garchand,
 Biroq alamiga bo'lolmas mone' (234).

“Mashrab” poemasidan olingan ushbu satrlarda lirik qahramon ruhiyati aks etgan. Mashrab Ofoqxo'ja dargohidan ketgandan so'ng ruhiy azoblarni boshdan kechiradi. Sababi, hayotiy lazzatlardan mahrum etilgan, sevimli Gulguni bilan ayro tushgan Mashrab qanday quvonsin?!

Taqdir qarshisida qolgan kabi mot,
 Bir tomchi bo'zadan bo'lganiday mast.

¹⁵ Мухаммад Али. Сайланма. Тошкент: “Шарк”, 1997, 217-218-б.

Gohi shodmon edi, gohi jigarxun,

Gohi loqayd edi, gohida majnun.

Yuqoridagi satrlarda ham Mashrabning Ofoq xo'ja dargohidan haydalgan keyingi ruhiy holati aks etgan. Oxirgi ikki satrda anafora (gohi) qo'llangan.

Shoir anaforalari o'ziga xos. Yuqoridagi tahlil etganimiz badiiyy parchalarda anaforani ikki xil qo'llash ko'zga tashlanadi: birinchisi, shoir deyarli bir bandda anaforani ishlatadi. Ikkinchisi, yo bandning dastlabki ikki satrida, yoki bandning oxirgi ikki misrasida anaforadan foydalanadi. Anafora kechinma, voqelikning muhim jihatlarini ta'kidlash, poetik mazmunni jozibashtirishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, shoir poemalarida qo'llangan badiiy san'atlar hayot bilan vobasta, tabiat bilan uyg'un, lirik qahramon ruhiyati, xarakteriga xos jihatlarni yoritishga ko'mak bergan.

III.2. Shoir poemalarida an'anaviylik

O'zbek mumtoz dostonchiligi o'zining ko'p asrlik an'analarga ega. Ushbu an'anaviylik xususiyati ularning shakli va mazmuni bilan bog'liq, albatta. Mumtoz dostonlar, asosan, aruz vaznida va masnaviy shaklida yaratilgan. Ma'lumki, adabiyotshunosligimizda masnaviy janri va shakli farqlanadi. Zero, masnaviy janri namunalari mumtoz adabiyotimizda hajman o'rtacha g'azaldan kattaroq bo'lgan, a-a, b-b, v-v, g-g va h.k. tarzida qofiyalanadigan mustaqil lirik janrlardan biri bo'lsa, masnaviy shakli unga xos qofiyalanish tizimini o'zida saqlagan keng hajmli liro-epik asarlar qurilishini anglatadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida, umuman, Sharq adabiyotida dostonlarni masnaviy shaklida yaratish ko'p asrlik an'ana hisoblanadi. Masalan, Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari xuddi shu she'riy shaklda yaratilgan bo'lib, ularda voqelik epik usulda bayon etilgan. Shuning uchun Shayx Ahmad Taroziy masnaviy haqida shunday yozadi: "Masnaviy iki misra'

bo'lur. Ikalasi muqaffo (qofiyalangan), netokkim, manzum qissalarni masnaviy qilibturlar"¹⁶.

Alisher Navoiy masnaviy orqali voqelikni keng va batafsil, ya'ni epik ifoda etish mumkinligini inobatga olib, yozadi:

...Lekin ul barchadin dag'i xubi,
 Bor durur masnaviyning uslubi...
 Masnaviykim burun dedim oni,
 So'zda keldi vasi' maydoni¹⁷.

Abdurauf Fitrat ham "dostonlar, maktublar (ko'brak sevgi maktublari) masnaviy yo'sinli yoziladir". Ayni choqda u masnaviyga xos yana bir jihatni alohida ta'kidlaydi: "...nazmning bu shakli shoirg'a ozodlik bergan. Turli hikoyalar, dostonlar, va'z-nasihatlar'ga oid uzun asarlar yozish uchun nazmning masnaviy shakli boshqa shakllarg'a qarag'anda qulayroqdir"¹⁸. Akademik adib I.Sulton masnaviyning aynan shu xususiyatini nazarda tutib: "Voqeabandlik masnaviyning xarakterli xususiyatidir... She'r bilan yozilgan syujetli asar Navoiy va Bobur tomonidan "masnaviy" deb atalgan, ya'ni "masnaviy" liro-epik janrning nomi ham bo'lgan", – deb yozadi¹⁹. Akademik B.Valixojayevning ta'kidlashicha, o'zbek adabiyotining "X1-X1X asrlar mobaynidagi tarixida masnaviy tarzida qofiyalanish barcha dostonlarning xususiyati bo'lib qolgan"²⁰ (17,22). Sh.Pulatova, I.Pavlova singari adabiyotshunoslar Muhammad Iqbol poemalarini o'rganar ekanlar, masnaviyni poemaga sinonim sifatida qo'llaydilar. Bundan ma'lum bo'ladiki, XX asr boshlari fors adabiyotida ham masnaviyni poema ma'nosida ishlatish urf bo'lgan. Adabiyotshunos D.Quronov, Z.Mamajonovlarning yozishicha, "misralarning o'zaro qofiyalanishi masnaviyni voqealar bayoni uchun

¹⁶ Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б.141.

¹⁷ Алишер Навоий. Сабъи сайёр. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. –Б.35..

¹⁸ Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б.141.

¹⁹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Т.: O'qituvchi, 2005. –Б.179.

²⁰ Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Т.: Фан, 1974. –22.

juda qulay shaklga aylantiradi”. Shunga asoslanib olimlar masnaviy termini doston ma’nosida qo’llanganini alohida ta’kidlaydilar²¹.

Muhammad Ali ham adabiyotimizdagi ko’p asrlik an’anani muvaffaqiyatli davom ettirib, “Beshgul”ni boshdan-oxir masnaviy shaklida yaratdi. Bu shakl shoirga voqelikni izchil tasvirlash imkoniyatlarini yaratdi. Bu an’anaga vorisiylik hisoblanadi.

Har bir poema badiiy shakl – masnaviyning u yoki bu qirrasini o’zida mujassam etishi bilan afzal. Binobarin, poemada masnaviy fikr izchilligini ta’minlashga xizmat qilganligi kuzatiladi. Ma’lumki, masnaviy “aruz va barmoqda ham yozilishi mumkin”. Hassos shoir o’zining yurtiga bo’lgan cheksiz mehri-ehtiromini falsafiy mushohadalar bilan yo’g’rilgan satrlarga mahorat bilan tizadi va barmoq vaznidagi an’anaviy masnaviy shaklini qo’llaydi:

Tabiat-ku, senga bergan benazir chiroy,
Yonda – niliy hoshiyali bir hovliqma soy.
Bir tomoning Shahrixondir, bir yog’ing – Quva,
Bir tomoning paxta maydon, yam-yashil uva...
Sog’inch hissi yurakda-yu yodimda bir-bir
Olis o’tmish, bugun, ertang chizmakda tasvir.
Ne tong, axir senga bitta farzand erurman,
Sening mo’jaz yuragingda qalqqan g’ururman.²²

Vatan mehri bilan sug’orilgan mazkur satrlarda chiroy-soy, Quva-uva, bir-bir-tasvir, erurman-g’ururman singari so’zlar ohangdosh bo’lib, shoirning voqelikni lirik tarzda ta’sirchan ifodalash usuliga aylangan. Shoir Vatanni insonlashtiradi. Bu “Sening mo’jaz yuraginda qalqqan g’ururman” satrida yorqin ko’rinadi.

Qaraymanu yigitlikning xayollariga,
O’smirlikning uch quyruqsiz savollariga
Intilaman. Lekin mendan qochadi ular,

²¹ Куронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr, 2010. –Б.162.

²² М.Али. Сайланма. -Тошкент: “Шарк”, 1997 йил, 262-б.

Go'yo labdan bir umrga uchgan kulgular.
 Ixtiyorsiz dalalarga chiqib ketamn,
 Jimib yotgan kengliklardan sado kutaman.
 To'qaylarni haydab solgan paxtazor ham jim,
 Paxtazorga termilaman, toliqar ko'zim.
 Jimlik, jimlik... Turib qoldim termilib uzoq:
 O'smirligim o'tgan bunda misoli chaqmoq (264).

Yuqoridagi parchada *xayollariga, savollariga; ular, kulgular; ketaman, kutaman; jim, ko'zim; uzoq, chaqmoq* kabi so'zlar o'zaro ohangdoshlikni vujudga keltirishdan tashqari, lirik qahramon kechinmalarini ochib beruvchi vosita vazifasini ham bajargan.

M.Ali XX asr 30-yillarida shakllanib, taraqqiyot yo'liga kirgan lirik va liro epik poemachilik an'alarini davom ettirdi. "Mashrab" poemasi voqebandlikka asoslanadi. Unda mutasavvuf shoir hayotining muhim davrlari aks etgan. Unda qahramon kechinmalari voqea hodisalar ichida beriladi.

"Beshgul" va "Gumbazdagi nur" poemalarida liriklik xususiyati asosiy o'ringa chiqadi. Lirik kechinmalar silsilasidan voqealar o'sib chiqadi.

Umuman olganda, shoirning yuqorida tahlil etganimiz dostonlari o'tgan asrning 60-80 yillari o'zbek poemachiligida alohida mavqe egallaydi. Temur va Mashrab shaxsiga munosabat turlicha bo'lgan murakkab bir davrda bu siymolarning badiiy obrazlarini poemaga olib kirish shoirning jasoratidan, xalqimizning ko'hna tarixini yaxshi bilishidan dalolat beradi. Ayni paytda bu asarlar poemaning tarixiy yo'nalishdagi ko'rinishi sifatida ham ahamiyatli. "Beshgul" dostoni esa vatan mavzuida mumtoz dostonchilik ohanglarida – masnaviy shaklida yozilgan asar ekanligi bilan e'tiborni tortadi. Demak, har uchala doston ham shoirning poemachilikdagi janriy-uslubiy izlanishlari mevasidir.

Xulosa

Muhammad Ali o'zbek she'riyatining betakror vakili, poema janri rivojiga munosib hissa qo'shgan taniqli ijodkordir. Shoir poemalari tabiatini, mavzular va obrazlar olamini, kompozitsion xususiyatlarini, badiiyatini belgilovchi muhim xususiyatlarni o'rganish, tahlil etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. M. Ali poemalari asosan lirik va liro epik shaklda yaratilgan. Ularda lirik va liro pik poemaga xos xususiyatlar bo'rtib ko'rinadi.

2. Shoir poemalari mavzu jihatidan ham rang barang. Xususan, tarixiy va zamonaviy mazmundagi poemalar fikrimizni tasdiqlaydi. "Mashrab" poemasi Boborahim Mashrab haqida Oybekning "Mashrab" she'ridan keyin yaratilgan ancha pishiq asarlardan biri sifatida ahamiyatli. "Gumbazdagi nur" esa Amir Temur haqida iliq gap aytish mushkul bo'lgan bir davrda yaratilganligi bilan e'tiborli. Har ikkala tarixiy mavzudagi poemada ham shoir tarixiy haqiqatdan chekinmaslikka, tarixiy manbalardan unumli foydalanishga erisha olgan.

3. Zamonaviy mavzudagi "Beshgul" poemasida avtobiografik xususiyatlar yorqin ko'rinib turadi. Bu poema o'z xarakteri jihatidan Erkin Vohidovning "Nido" poemasiga yaqin turadi. Ayni choqda bu poemada shoir o'zbek poemachiligida an'anaga aylana borgan masnaviy shakli imkoniyatlaridan samarali foydalangan va poemani boshdan oxir zamonaviy barmoq vazni va masnaviy shaklida yaratgan.

4. Shoir tarixiy poemalarida tarixiy shaxslar obrazlarini mahorat bilan yaratishga intilgan. Xususan, Mashrab obrazini yaratishda bu yorqin ko'rinadi. Mashrab obrazi dialektikasi, o'sib borishi tarixiy manbalar asosida dalillangan. Shu bilan birga Mashrab o'sgan muhit, ustozlari Ofoqxo'ja eshon tasvirlarida ham tabiiylik, hayotiylik sezilib turadi. "Gumbazdagi nur" asosan kechinmalar tasvirida iborat. O'sha kechinmalar tasviridan voqealar o'sib chiqadi. Ko'z o'ngimizda Amir Temur davri Samarqand, Muhammad Sulton uchun gumbaz

qurgan o'n ikki me'mor siymosi gavdalanib turadi. Shu bilan birga asardagi o'spirin yigitcha va mo'ysafid obrazlari ramziy mazmun tashiydi. Ular o'tmish va bugunni bog'lovchi, hayotning davomiyligini ko'rsatatuvchi sifatida taassurot uyg'otadi.

5. Shoir poemalarining badiiy tili ham shirali. U bir qator badiiy san'atlar: tashbeh, talmeh, sifatlash, tazod, tashxis kabilardan samarali foydalanib poetik fikrni ta'sirchan ifodalashga va o'zi yaratgan obrazlarning xarakterini ochib berishga erishgan.

6. Shoir poemalarida an'anaga vorisiylik yorqin ko'zga tashlanadi. U o'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviylashgan masnaviy shaklidan foydalanib, avtobiografik xarakterdagi "Beshgul" poemasini yozdi. Shu bilan birga o'tgan asrning 30 yillarida shakllana boshlagan poemachilikning an'alarini davom ettirdi. Shoir poemalari asosan barmoq vaznida va sidirg'asiga she'riy shaklda yaratilgani bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Umuman olganda, Muhammad Ali o'zbek poemachiligini tarixiy va zamonaviy mavzudagi poemalari bilan boyitdi.

Фойдаланилган адабиётлар

I. Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ва сиёсий адабиётлар

1. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-том. – Т.: Ўзбекистон, 2001. –440 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –174 б.
3. Каримов И.А. Ватан ва халқ мангу қолади. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010. – Б. 136.
4. Каримов И.А.. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009, 4-сон, 3-11-б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т.: “Ўзбекистон”, 2011. –440 б.

II. Алоҳида нашрлар

6. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Тошкент: “Фан”, 1991. –382 б.
7. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Иккинчи жилд. –Т.: Фан, 1992. –246 б.
8. Алишер Навоий. Асарлар. 12-том. Мажолисун нафоис, 7-мажлис. Тошкент, 1967 йил, 169-б.
9. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. –Б.35.
10. Белинский В.Г. Танланган асарлар. –Т.: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1955. –510 б.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –558 б.
12. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Т.: Фан, 1974. – В.22.

13. Долгополов Л.К. Поэмы Блока и русская поэма конца XIX начала XX веков. –М., Л.: Наука, 1964. –188 с.
14. Киканс В.П. Современная советская поэма. –Р.: Зинатне, 1982. – С.133.
15. Мамажонов С. Ранглар ва оҳанглар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –238 б.
16. Мамажонов С. Ўзбек дostonчилиги хакида ўйлар // Совет Ўзбекистони, 1981, 28 июнь.
17. Миркарим Осим. Карвон йўлларида. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978, 16-36, 236-245-бетлар.
18. Муҳаммад Али. Сайланма. Тошкент: “Шарқ”, 1997. –446 б.
19. Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек дostonчилигида услубий изланишлар. Китобда: Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. –Т.: Фан, 1983. –204 б.
20. Мўминов Ғ. Ўзбек совет адабиёти тараққиётида фольклорнинг ўрни. –Т.: Фан, 1985.
21. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. –Т.: Фан, 1986. –174 б.
22. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет поэмасининг тараққиёт жараёни. Китобда: Адабий турлар ва жанрлар. –Т.: Фан, 1992. –Б. 171-292
23. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Т.: O`qituvchi, 2005. –270 б.
24. Сулаймонов Ш., Тўхсанов Қ. Адабиётшунослик луғати. –Б.: Бухоро, 2009. –160 б.
25. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. –Т.: Шарқ, 2002. –252 б.
26. Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. –Тошкент: “Маънавият”, 2006, 209, 211-бетлар.
27. Хализев В.Е. Теория литературы. –М.: Высшая школа, 2000. – 398 с.
28. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Шарқ, 2008. –366 б.

29. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б.141.
30. Шоҳ Машраб қиссаси. Тошкент: “Шарқ”, 1991.
31. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги.–Тошкент: “Фан”, 1983. –204 б.
32. Қуронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr, 2010. –398 б.
33. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли. 2-том. –М.: Рус тили, 1981. –716 б.
34. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –680 б.
35. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Иккинчи жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. –688 б.
36. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. –704 б.
37. Қуронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr, 2010. –Б.1
38. Қўшжонов М. Ёзувчи камолотидан далолат. Китобда: М.Али. Улуғ салтанат. Тошкент: “Шарқ”, 2003, 328-333-б.
39. Ҳасанов Ш. Замонавий дoston поэтикаси. –С., 2001. –142 б.
40. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс.... –Т., 2004. –284 б.
41. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек поэмачилигида жанр ва услуб ранг-баранглиги. –Тошкент: Фан, 2010. –144 б.

III. Интернет сайтлари

42. www.ziyo.uz.com

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Muhammad Ali poemalarining o'ziga xos xususiyatlari.....	6
I.1. Muhammad Alining ijodiy biografiyasi.....	6
I.1. Shoir poemalarining mavzulari va obrazlari.....	8
II bob. M.Ali poemalarining syujeti va kompozistiyasi.....	14
II.1. "Gumbazdagi nur" – lirik poema namunasi.....	14
II.2. "Mashrab " poemasida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima.....	19
2.3. "Beshgul"da avtobiografizm.....	32
III bob. Shoir poemalarining badiiy olami.....	36
III.1. Badiiy san'atlarni qo'llashda shoir mahorati.....	36
III.2. Shoir poemalarida an'anaviylik.	42
Xulosa.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar	49